

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

**“ Sh.Xolmirzyaev asarlarining badiyatini
ta’minlovchi leksik – stilistik vositalar” *mavzusidagi***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «O‘zbek filologiyasi» bakalavr
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi
Raximboyeva Yulduzning_____

ILMIY RAHBAR:
f.f.n., dots. Madaminov A_____

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.
____-sonli bayonnomasi «____» may 2014-yil

Nukus- 2014

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI HIMOYAGA TAVSIYA
QILINADI:**

Fakultet dekani:	dots. Abdullaev H.
Kafedra mudiri:	dots. Bobojonov F.
Ilmiy rahbar:	dots. Madaminov A.

DAK Q A R O R I:

**Raximboyeva Yulduzning Sh.Xolmirzyaev asarlarining badiyatini
ta'minlovchi leksik – stilistik vositalar mavzusi dagi bitiruv-malakaviy ishiga
Davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan « » ball qo'yilsin.**

DAK kotibi:	Qlichev N.
--------------------	-------------------

«_____» _____ 2014 yil

Sh.Xolmirzayev asarlarining badiyatini ta'minlovchi leksik – stilistik vositalar

REJA

KIRISH:

- 1.Mavzuning o'rganilishi, dolzarbligi, maqsadi va vazifalari.

II.BIRINCHI BOB:

1. Yozuvchining til tasviriy vositalaridan foydalanish mahorati
2. Yozuvchi asarlarida parsellyasiya va ilova qurilmalarning ishlatilishi

III.IKKINCHI BOB:

- 1.Yozuvchi asarlari tilining leksik qatlamlari va uslubi
- 2.Til tasviriy vositalari va noadabiy leksik birliklarning qo'llanilishi

IV.UMUMIY XULOSALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Ma'lumki, badiiy adabiyot tilini tekshirish dastlab o'tgan asrning 20-yillaridan boshlandi. Dastlab Evropa tilshunosligida «Praga lingvistik tugaragi» a'zolari tomonidan badiiy adabiyot tilining muhim qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari ochildi. Shundan keyin yirik tilshunos olimlarning jumladan, akademik V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, A.I.Efimov, M.I.Kojina kabilarning ilmiy tadqiqotlari maydonga keldi. Bu ta'limotlar o'rganilib turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilshunosligida Sh. Shoabdurahmanov, G'.Abdurahmanov, R.Qo'ng'urov, X.Doniyorov, Yo.Tojiev, B.Yo'ldashev, S.Karimov, B.Umurqulovlarning nomzodlik va doktorlik ilmiy tadqiqotlari paydo bo'ldi.

Ayniqsa, bu sohada Q.Samadovning Oybek asarlari tiliga, B.Yo'ldoshevning Said Ahmad asarlari tiliga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari qimmatlidir¹. Q.Samadov badiiy matnlarda so'zlar ishlatilishining qay yo'sinda bo'lishi yozuvchi badiiy barkamolligiga bog'liq deydi va bu holatni har bir tadqiqotchi tekshirish jarayonida anglab olmog'i shart deb ta'kidlaydi². Haqiqatan ham har bir yozuvchining o'ziga xos uslubi bo'lib, bu maxsus tadqiqot ishlari olib borilganda yaqqol namoyon bo'ladi.

Darhaqiqat, Sh.Xolmirzayev asarlari tilinng o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan R.Normuradov adibning har bir so'zni qo'llashida katta e'tibor berganligin va bu asar tilining rang-barang bo'lishiga xizmat qilganligini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, u «yozuvchi ijodida qo'llangan og'zaki nutqqa xos leksik grammatik vositalarni diqqat bilan tekshirar ekanmiz, xar bir og'zaki nutqqa xoslangan so'zning his-hayojon qo'zg'atish, bo'yoqdorligini ko'ramiz, deb ko'rsatadi». Masalan: - Chiqmaysani, ey xalq-deb baqiradi. So'ng bo'g'otga yaqin borib, xassasi bilan tusinni o'rdi. – Chiq-e, la'natilar! Qo'rqqoqlar!... Uyat! He, usta

¹ Самадов К. Некоторые вопросы языкового мастерства Айбека. АКД Т.1967. Юлдашев Б. Язык и стиль произведений С.Ахмеда АКД. Т.1979.

²Normurodov.R.Shukur Xolmirzoyev asarlarining til xususiyatlari. AKD T.2000.

G'iyos! Nosingni tupur-e bachchag'ar! Ushbu parchada og'zaki nutqqa xos tupur-e bachchag'ar kabi so'zlar qo'llangan. Shuningdek, la'natilar, qo'rqqoqlar, bachchag'ar kabi so'zlar undalma vazifasida kelib turli xil shaxslarga murojaat qilinmoqda.

Demak, mazkur bitiruv malakaviy ishimizda Sh.Xolmirzayev asarlari tilinng leksik-stilistik xususiyatlari o'rganiladi. Shu bois badiiy asar tilini o'rganishda badiiylilik va uni ta'minlovchi leksik-semantik vositalarni chuqur anglashimiz lozim. Badiiyat – bu, asrning tashqi dunyosi, uning libosidir. Asar qanchalar badiiy jihatdan etuk barkamol va go'zal bo'lsa, u shunchalar kishiga tez hamda kuchli ta'sir ko'rsatadi uni hayajonga soladi, kishida kuchli ehtirolarni qo'zg'aydi. Bu yerda yana inson psixologiyasi muammosi ham bor. Masalan, kishi go'zal manzarani ko'rsa zavqlanadi, qalbi, vujudi shodlikka to'ladi. Shu bilan birga u o'z diliga go'zal hislar yig'ilganligini ruhiyatining ko'tarilganligini sezadi. Shu bois badiiy asar ta'sirchanligini oshirish maqsadida yozuvchi pezaj va tasviriy vositalarga alohida ahamiyat beradi.

Yaxshi badiiy asar o'z ta'sirchanligi bilan o'quvchini tarbiyalaydi va uning manaviyatiga ta'sir etadi. Asarning tarbiyaviy va marifiy tomoni uning ma'nosini (mazmunini), badiiy jhati esa, suvratini (shaklini) tashkil qiladi. Suvrat – tashqi ko'rinish, ma'no – mohiyat, asos hisoblanadi. Demak, yozuvchi Sh. Xolmirzayev mahoratini belgilashda asosiy mezon – yuksak badiiylilik, so'z boyligi hamda badiiy asarda ma'no va uslubning o'ziga xosligidir. Yozuvchi asarlari leksik – stilistik jihatdan badiiy – tasviriy vositalarga boy bo'lib, unda metofora, metonimiya, senikdoxa va parsellyasiya kabi hodisalarga juda boy.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tili keng o'rganilgan bo'lib, asosan so'z ma'nolarining ko'chish usullariga qaratilgan. Sh. Xolmirzayev asarlari tilini o'rganish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, adib o'z asarlarida tasviriy vositalar – metofora, metonimiya va sinikdoxa hodisalaridan tashqari parsellyatsiya hamda undalmalardan uslubiy maqsadlarda keng foydalangan.

O'zbek tilshunosligida Sh. Haydarov tomonidan "Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning qo'llanilishi"¹ Bundan tashqari undalmalarning badiiy matndagi o'rni va ahamiyati mavzusida ham qator ilmiy maqolalar e'lon qilingan.

Xuddi shunday ta'limot qozoq tilida M.Tomanov, P.Sayrambaevlar tomonidan nashr qilingan darslik va uslubiy qo'llanmalarda ham o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, o'zbek tilida bu masala bo'yicha shug'ullangan A.Sayfullaev ham prof. A.N.Kononov, prof. A.G'ulamov fikrini davom ettirib, undalmalarni bir nechta semantik guruhlarga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi. Ularni tuzilishiga ko'ra esa sodda, tarkibli va murakkab undalmalarga ajratadi.

Xullas, an'anaviy tilshunoslikda undalmalar masalasi shakli va grammatik tomondan chuqur o'rganilgan bo'lib, ularning nutqda qo'llanishi bilan bog'liq masalalari, tuzilishi keng yoritilgan. Demak, «Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligida ham undalmalar faqat bir tomonlama ya'ni sintaktik tomonidan chuqur o'rganilganligining guvohi bo'lamiz.

Prezidentimiz I. A. Karimov "Ona tili bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrardir"² – deb bejiz aytmagan. Darhaqiqat tilda xalqning taqdiri, yashash tarzi, ma'naviy boyligi, millatning saviyasi, ruhiyati o'zining yorqin ifodasini topishi tabiidir. Istiqldan keyin o'zbek tili sohasida ham milliy ruh va milliy qadriyatlarni tiklash uchun harakat kuchaydi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqidagi" qonunining qabul qilinishi o'zbek tili taraqqiyotiga keng yol ochib berdi. Natijada ilgari formal tilshunoslik o'rnida sistem yo'nalishdagi yangi yo'nalish paydo bo'la boshladi va bu sohada juda katta ishlar amalgam oshirildi.

¹ Хайдаров Ш. М Бадий матнда парцеллятив конструкцияларнинг қўлланилиши. Н,Д,А, Т. 2011

² Karimov I. A O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yolida. – T., O'zbekiston., 1995 B.23.

Shu bois tilni sistem tahlil usulida o'rganish natijasida «O'zbek tili nazariy grammatika»sida sintaktik butunliklar shakliy, mazmuniy va pragmatik tomondan o'rganila boshladi. Sodda gap tarkibidagi gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga

kirishmaydigan sintaktik shakllar ham shakliy va mazmuniy tomondan o'rganiladi. Shundan sub'ektiv munosabatni ifodalovchi undalma va kirishlar o'z navbatida undash va modal munosabatlarga ajratib qaraladi. Undash munosabatining o'zi bir nechta semalarga ajratiladi. Hatto, hozir o'zbek tilshunosligida prof. A.Nurmanov, M.Hakimov bilan hamkorlikda «Sintaktik birliklarning pragmatik tomonini» o'rganishni targ'ib qilmoqda.

Natijada M.Muhammadiyeva tomonidan undalmalar presdipozitsyasi ishlab chiqildi.

Demak, hozir sistem tilshunoslik sintaktik birliklarni faqat shakliy, mazmuniy tomondan o'rganib qaymasdan, ularni pragmatik tomondan o'rganishni talab qilmoqda. Chunki tilshunoslikda sintaktik tadqiqotlarning kuchayishi natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, lisoniy birliklarning ashkliy va mazmuniy tomondan ta'rifi tilni to'la izohlashga imkon berolmaydi. Lisoniy birliklarni kontekst, nutq vaziyati bilan bog'lab o'rganishgina ularning ma'nosini to'g'ri tushunishga katta imkoniyat berar ekan. Natijada bu lisoniy birliklarning pragmatik tomoniga qiziqishni kuchaytiradi.

Ma'lumki, axbaorotni to'g'ri tushunish uchun so'zlovchining til haqidagi bilimlaridan tashqari, tinglovchining olam haqidagi bilmlari, jumladan qo'llanayotgan ijtimoiy holat haqidagi bilimi, so'zlovchining ruhiyati haqidagi bilimlari ham kerak bo'lar ekan.

Ana shunday amaliy ehtiyoj tufayli semantika va pragmatika vujudga keldi. Lisoniy birliklarning bu uch tomonisiz aloqa vositasi bo'lgan til o'zining to'liq talqinini topa olmaydi.

Demak sintaktik birliklardan undalmalar ham shu uch tomondan o'rganilgandagina ularning mohiyati to'la ochiladi.

Respublikamizda o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi til siyosatidagi bosh yo'lni to'g'ri anglab olishimizga imkoniyat yaratdi. Xususan, o'zbek adabiy tili va badiiy adabiyot tili oralig'idagi masalalarni teranroq, aniqroq tushunishimizga turtki bo'ldi. Ayni paytda, badiiy asar tilining adabiy til taraqqiyotiga ta'sir etib turishining samarali ekanligini ham anglab etishimizga keng yo'l ochib berdi. Natijada, badiiy adabiyot tili masalasini o'rganishga ehtiyoj tug'ila boshlagandi. Shu boisdan bo'lsa kerak, keyingi paytlarda bu yo'nalishga qiziqish tobora ortib bormoqda vash u yo'nalishda sezilarli darajada ishlar qilishmoqda¹.

Avvalambor, badiiy adabiyot tilining o'rganilishi lingvistik tadqiqot sifatida qaralibgina qolmay, balki u adabiyotshunoslikning ham o'rganishi lozim bo'lgan muammolardan biridir. Akademik V.Vinogradov bu haqda to'xtalib, «Badiiy adabiyot tilini o'rganish filologiya fanining asosiy xususiyatlarini belgilab berar ekan, undan tilshunoslik va adabiyotshunoslik har tomonlama nazariy masalalarga ega bo'ladi», deb ta'kidlaydi². Demak, badiiy adabiyot tilini ham adabiyotshunoslik, xam lingvistik nuqtai nazardan o'rganish maqsadga muvofiqdir. Biz o'z tadqiqotimizda bu yo'nalishni lingvistik nuqtai nazardan tahlil etishni lozim topdik.

Darhaqiqat, badiiy adabiyot tilini o'rganish masalalari asriy tajribalarga asoslangan bo'lib, o'tmishda ko'pgina badiiy til ustalarining ijodiyot o'rganilganligi haqida ham fikrlar mavjud. Jumladan, eski o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiyning hayoti oxirida yoki o'limidan biroz keyin uning asarlari asosida «Badoynul-lug'at», keyinroq esa «Lugati Navoiy» yaratilgan. 1560 yilda Aloyi binni Muhibiy «Al-lug'atun Navoiy v-al-istishhodatul-chig'atoiat» (Navoiy lug'ati va chig'atoy til dalillari) kitobini tuzdi.

Keng ma'noda badiiy adabiyot tilini tekshirish bo'yicha ishlar asrimizning 20-yillaridan boshlandi va bu masalani birinchi bo'lib, Evropa tilshunosligi

¹ Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадий стил. Т.1988. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. Самарқанд 1992. Умурулов Б. Бадий адабиётда сўз. Т., 1993.

² Виноградов В. Проблемы русской стилистики. М.1991.

maktabi a'zolari o'rgana boshladilar. Ayniksa, «Praga lingvistik to'garagi» a'zolarining olib borgan faoliyatlari tufayli badiiy adabiyot tilining muhim qonuniyatlari hamda Yangi qirralari ochildi. Bu hol, shubhasiz, o'zbek badiiy adabiyot tilini o'rganishning muhim ekanligidan ham dalolat beradi.

Mavzuning dolzarbligi. Adabiyotning birinchi elementi – til ekanligi isbot talab etmaydigan aksiomadir. Haqiqatdan ham, yozuvchining dunyoqarashi, o‘y-fikri, uning tushunish darajasi, yangilik-ixtirosi ularning asarlarida badiiy til orqali yuzaga keladi. Bu holat har bir san’at ahlining talanti, badiiy mahoratini belgilab berishi, tabiiydir. Shukur Xolmirzayev asarlarining tipini o‘rganish jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, yozuvchining badiiy mahorati, uning so‘z qo‘llashdagi o‘ziga xos talanti, lisoniy ijodkorligi, yozuvchining til imkoniyatlarini qay darajada bilishi bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tilini o‘rganish borasida ancha ishlar qilinganligiga qaramay, bu sohadagi ishlarning nihoyatda kamligi, ko‘pgina etuk ijodkorlar, etuk asarlarning lisoniy jihatlarini hali umuman o‘rganilmaganligi, ularni o‘rganishning esa xam nazariy, ham amaliy jihatdan zaruratga aylanganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Ishning mavzusi. Ishda asosiy mavzu sifatida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlarini o‘rganish olindi. Ish doirasida yozuvchi asarlari tilining o‘ziga xos xususiyatlari, alohida uslubi, til birliklari imkoniyatlaridan foydalanishiga munosabat masalalari xususida fikrlar yuritildi.

Ishning maqsadi. Ishning asosiy maqsadi yozuvchi Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlarini o‘rganishdan iborat bo‘lib, uning leksik-uslubiy jihatlarini tahlil etmoq ham maqsad doirasiga kiradi. Xolbuki, Shukur Xolmirzayev ijodi o‘zining turli lug‘aviy va uslubiy ma’no hosil qiluvchi vositalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ana shu jihatlarini o‘rganish tadqiq etilayotgan ishning maqsadini belgilaydi.

Ishning ilmiy yangiligi. Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida birinchi marotaba tahlil etilayapti. Ishda Shukur Xolmirzayevning individual nutq tuzish yo‘li, o‘ziga xos uslubga ega ekanligi alohida rejada o‘rganildi. Aytish mumkinki, ko‘pgina ijodkorlarning asarlari tili tahlil etilgan, xususan Oybek, Said Ahmad, Maqsud Shayxzoda, Komil Yashin, Shuxrat singari ijodkorlarning asarlari tilini o‘rganish bilan bir qatorda Shukur

Xolmirzayev ijodini o'rganish ham o'ziga xos ijodiy yangilikni yuzaga keltirishi, shubhasizdir: Chunonchi, ish da Shukur Xolmirzayevning o'zbek badiiy prozasi tili badiiyati taraqqiyotidagi o'rini belgilovchi omillar alohida tadqiq etildi.

Ishning metodologik asoslari. Ishni yozishda asosan tavsifiy metoddan foydalanildi. Shuningdek, yirik olimlardan V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, A.I.Efimov, O.S.Axmanova, M.I.Kojina hamda o'zbek uslubshunos olimlar Sh.Shoabduraxmonov, G'.Abduraxmonov, R.Qo'ng'urov, X.Doniyorov, Yo.Tojiev, B.Yo'ldoshev, S.Karimov, B.Umurqulov va boshqa shu yo'nalishda tadqiqot olib borgan tilshunoslarning tadqiq metodlariga asoslanildi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Ishda o'z ifodasini topgan lisoniy dalillar umumiy tilshunoslikning «Uslubshunoslik», «Nutq madaniyati», «Badiiy asar tili masalalari» kabi yo'nalishlari bo'yicha maxsus nazariy kurslar sifatida o'qitilishi mumkin. Amaliy jihatdan ish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, badiiy asar tilini o'rganish orqali adabiy til me'yorlarini to'g'ri belgilash imkoniyatlari kengayadi, Ta'lim tizimida ona tili birliklarini o'quvchiga singdirish uchun Yangi-yangi faktlar majmuasi tashkil etiladi.

Ishning usullari. Yozuvchining asarlari tilini tahlil etish va o'rganishda turli usullarga, jumladan jahon hamda o'zbek tilshunosligida yuzaga kelgan, badiiy adabiyot tilini tadqiq qilish usullaridan foydalanildi.

BIRINCHI BOB

Yozuvchining til tasviriy vositalaridan foydalanish mahorati

Ma'lumki, uslub va til tasviriy vositalarini o'rganish tilshunoslikning dolzarb va muhim masalalaridan biri bo'lib qoldi. Chunki har bir lingvistik vosita nutq jarayonida nominativ vazifani bajarish bilan birgalikda, uslubiy vosita ham bo'lishi mumkin. Odatda bunday vositalar badiiy tilning ham, har tomonlama uslubiy jihatdan ta'sirchan bo'lishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Yozuvchi ijodida ana shunday uslubiy vositalardan keng ishlatiladigani perifrazadir.

Perifraza – rus, ukrain, belorus va qardosh xalqlar tilshunosligida keng doirada o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida ham bu ko'chim turini o'rganish masalasida ancha diqqatga loyiq tadqiqotlar yuzaga keldi. Biz ham o'z ishimizda yozuvchi ijodi uchun xarakterli bo'lgan ayrim perifrazalarni ko'rib o'tmoqchimiz.

Masalan: Bu vaqtda Buxoroda ham amirlikdan noroziliklar kuchayib, fikri ochiq ziyolilar jamiyati tuzilib, maxfiy yig'inlarni o'tkazishar edi («Qil ko'prik»). Ushbu matnda qo'llanilgan *fikri ochiq ziyolilar* birikmasi *tushungan* so'zining perifrastik nomlanishidir. Aytish mumkinki, *tushungan* so'zi biror narsani anglab olmoqlik ma'nosini ifodalaydi, *fikri ochiq ziyolilar* birikmasi ham asosan shu ma'noni ifodalaydi. Biroq keyingi ifodada ma'no juda aniq va ta'sirchan yo'sinda berilgan. *Fikri ochiq* birikmasi «ma'lum narsalarni to'g'ri va to'la anglab etgan» degan ma'noda tashqari «ular fikri hammadam ham shakllanib qolgan, hammaga etib borishi mumkin (kelajakda ularga yo'l ochiq bo'lishi lozim)» degan ma'nolarni ham shuningdek, «bu fikrlarni ochiq ayta oladigan, ayta olish qudratiga ega» degan ma'noldarni ham ifodalaydiki, buni matn mazmunidan aniq sezish mumkin. Bu ham o'ziga xos perifraza yaratish namunasi bo'la oladi. Yana bir misol keltiramiz: «Keyin Amir nomiga bitta maktub bitilgan edi. Janob oliylari maktubni o'qib, yoshlarni o'z huzurlariga chaqirdilar». Keltirilgan matnda esa yozuvchi *amir* so'zini qayta qo'llamaslik uchun xam *janob oliylari* birikmasidan foydalangan. Bu

esa o'z navbatida matnda qaytariq bo'lmasligini ta'minlagan, shu bilan asar tili rang-barangligini, boyligini oshirgan. Bu misoldagi janob olyilari birikmasi kinoya, kesatiqni ifodalash uchun xam ishlatilgan bo'lishi mumkin.

Tildagi ko'pgina so'zlar o'z ma'nosidan tashqari boshqa ma'noga ham ega bo'lishi mumkin. Ba'zan bunday so'zlar o'z ma'nosiga teskari, zid bo'lgan ma'nolarni ifodalash uchun ham qo'llanadi. Bunday so'zlarning yuzaga kelishida predmetning belgisi yoki tashqi ko'rinishi boshqa bir predmetga ko'chiriladi va shu yo'sinda shakllanadi. Odatda bunday so'zlar boshqa ma'noga ega bo'lib, badiiy tilning taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir etib boradi. Metafora, metonimiya, sinekdoxa kabilar ana shunday hodisalardir. O'xshatish ham ana shunday hodisalardan biri hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida o'xshatishni tadqiq qilish bilan bog'liq talaygina asarlar va maqola xarakteridagi ishlar mavjud. Ayniqsa, M.Mukarramov, R.Qo'ng'urovlarning o'xshatish xususidagi ishlari alohida diqqatga sazovordir.

Binobarin, o'xshatish qadimiy tasviriyl vositalardan biri bo'lib, juda soda hamda ko'p qo'llanadigan uslubiy vositalar. O'xshatish nafaqat tilshunoslik fanining, balki adabiyotshunoslikning ham asosiy tekshirish ob'ekti bo'lib, adabiyotshunoslikka oid ba'zi manbalarda o'xshatishning u yoki bu tomonlari o'rganilgan.

Darhaqiqat, har bir qahramon va personajning ichki va tashqi dunyosini hamda unga xos muhim belgilarni kitobxonga etkazish maqsadida ham o'xshatishning eng yaxshi namunalaridan foydalaniladi: Uni kuzatib turgan Munira bir payt qarasa, Quvvatbekov o'zgarib qolibdi: nigohida yoshlarga xos sho'xlik, jo'shqinlik. Qo'l xarakterlari xam tez. Go'yo o'zini qoplab turgan sirli qobikdan yarq etib yorug'likka chiqqandek («So'nggi bekat»). Keltirilgan matn chiroyli tasviriyl jihatga ega bo'lib, unda qahramonlarning ichki dunyosi va tashqi ko'rinishi bilan bog'liq holatlar aks etgan, ayniqsa Quvvatbekovning nigohida yoshlarga xos jo'shqinlik va quvnoqlik alomatlarining jonli tarzda tasvir etilishi hamda o'zini qoplab turgan sirli qobiqdan yorug'likka chiqishi kabi holatlar

o'xshatish vositalari orqali ochib berilgan. Demak, yozuvchi har bir obraz va personaj dunyoqarashini tasvir etar ekan, unda o'xshatishlar katta ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi ijodida leksik vositalar bilan birga, grammatik vositalar ham o'xshatish priyomlarini vujudga keltirganligini kuzatamiz. Jumladan, -dek, -day qo'shimchalari ham muallif ijodida keng doirada qo'llanilib, ajoyib o'xshatishlar yasaydi. Masalan: Oqibat uni ko'rganda, raqibi talab tashlagan kaklikdek pisib, o'zini ojiz sezadigan bo'lib qoldi. Juda ham katta, baquvat it edi. Quloq, dumi kesilgan, momaqaldiroq gulduraganday yo'g'on tovush Bilan xuradi. Keltirilgan matnlarda -dek, -day qo'shimchalari o'xshatishlar hosil qilgan. Jumladan, birinchi matnda Nazarov raqibini ko'rganda qo'rqib, pisib qoladigan, ya'ni raqibi talab tashlagan kaklikka o'xshatilgan. Ikkinchi matnda esa hurib, ovoz chiqarish momaqaldiroq ovoziga o'xshatilgan. O'xshatishning holatini, tasvirini mubolag'ali ko'rsatish ham Sh.Xolmirzaev asarlari tilining o'ziga xos jihatlaridan biridir. Masalan, ikkinchi matnda it hurishining momaqaldiroqqa o'xshatilishi o'ta aniqlik va o'ziga xoslik kasb etgan. Xuddi shuningdek, «raqibi talab tashlangan kaklikday» o'xshatishi ham yozuvchiga xos alohida o'xshatishdir. Bunday o'xshatish o'zbek badiiy adabiyotida ham, jonli so'zlashuvda ham deyarli kam uchraydi. «Pati yulingan tovuqday», «suvga tushgan mushukday» kabi o'xshatishlar bor. Biroq «talab tashlangan kaklikday» o'xshatishi haqiqatan ham originalligi bilan ajralib turadi.

Shukur Xolmirzaev badiiy prozalari tilida obraz yaratishning muhim vositalaridan yana biri metafora hisoblanadi.

Binobarin, metaforik munosabat ma'lum sharoitda, ma'lum voqea-hodisani «tasvir etishda ikki predmet yoki hodisa o'rtasidagi umumiylikka» asoslangan holda belgilanadi. Ular o'rtasidagi umumiy ko'rinishlar, xislatlar biridan ikkinchisiga ko'chiriladi. Bunda asosan obrazli tushunchalar yuzaga keladi. Masalan: «Arslonov hafa edi!... Uning hayolida allaqanday ko'kish toshlar qalashib yotgan. Ko'ktoshda bir vulqon portlashga hozirlanayapti-yu, oldi olinmasa, dahshat yuz beradigandek!»... «Shahar osmonida aylangan qora bulutlar

tarqab, baayni quyosh chiqadi. Qon, dahshat isi kelib turgan shaharda to'y-tomosha boshlanib ketadi». Ushbu matnlarda *vulqon*, *qora*, *bulut*, *quyosh* kabi so'z va so'z birikmalari metaforik munosabatni ifodalash uchun xizmat qilgan. Aslida, urush va tinchlik ma'nolari ifoda etilgan hamda fikrga badiiy tus berilgan, badiiy nutqqa esa obrazlilik va o'ta kuchli emotsiya ifodasi o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Yovvoyi qushlar, uy parrandalari nomlarini anglatuvchi ko'pgina leksemalar ham metaforik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ko'pgina holatlarda qushlarga xos ba'zi bir salbiy xatti-harakatlardagi ma'noni ifodalashda metofofik munosabat yuzaga keladi. Bunday holatda ma'noda ekspressiv-emotsionallik yanada kuchayadi hamda badiiy ta'sirchanlik oshib boradi. Bunday qo'llanishlar ham yozuvchi ijodi uchun xarakterli bo'lib, buni kuyida berilgan matn orqali ham anglab etish mumkin:

-chik. –Kayum kameraga ko'z solib, iziga qaytdi. –Erda yotibsan. Senga ko'rpacha solib bergan, edim... E, qurib ket! Sig'sa ichingda! O'zing tupa-tuzuk yigitsan!...E! Hamrohing qarg'a bo'lsa, eganing axlat bo'ladi...Keltirilgan matnda *qarg'a* so'zi semantikasida salbiy ma'no ifodasi mavjud bo'lib, hamrohining yomon ekanligiga ishora qilingan. Demak, bu o'rinda qahramonning tinglovchiga munosabyuatinig salbiyligi Ushbu metafora orqali ochilgan. Ayni paytda, so'zlovchining bu holatdan achinayotganligi, hamrohining o'zi ga ham yomonlik olib kelayotganligini ta'kidlash ishorasi bor. O'z navbatida yozuvchining til imkoniyatlaridan samarali foydalanganini e'tirof etish lozim.

Yozuvchi ijodida tilning muhim qirralarini belgilashda hamda obrazli vositalarni uyushtirishda katta rol o'ynaydigan uslubiy vositalardan yana biri epitet (sifatlash)dir.

O'zbek tilshunosligida epitetni tadqiq etish byayicha ham ma'lum ishlar qilingan¹.

Badiiy nutqda epitetlar obrazlarga jilva beradi, obrazli tushunchalarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga badiiy tilni yorqinlashtiradi hamda har bir

¹ Тўрабекова С. Тил ва услуб. Т.1963. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний тахлил. Т., 1995.

tushunchaning uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lishida muhim o‘rin egallaydi. Xususan, Shukur Xolmirzayev epitetslar orqali o‘zi tasvirlayotgan voqea-hodisaning aniq, ishonarli bo‘lishiga erishadi. Masalan: «Oy daryo ortidagi tuman ichida sarg‘ayib suzar, tuman sarg‘ish, sirli ko‘rinar, daryo bo‘g‘iq ovoz chiqarib, afsonaviy bir maxlukdek kilkillab oqar edi». Ushbu matnda voqelikni kuchli tasvirlash maqsadida xam *sarg‘ish*, *bo‘g‘iq* kabi epitetslar ishlatilgan bo‘lib, *sarg‘ish* epitetsi oyga sifat berish uchun qo‘llashga bo‘lsa, *bo‘g‘iq* epitetsi orqali esa daryoning ovozigga nisbat berilgan. Demak, yozuvchi bu kabi epitetslar orqali tasirning aniq. Ishonarli bo‘lishini kitobxonga etkaza bilgan. Yozuvchi ko‘pgina hollarda qaxramonlarning qiyofalarini, ularning ijobiy va salbiy hislatlarini tasvir etishda ham epitetslarga murojaat etadi. Bu narsa esa tilshunoslikda ayrim tadqiqotlarda o‘z ifodasini topgan. Jumladan, prof. B.Yo‘ldoshev Said Ahmad asarlarida qo‘llanilgan epitetslar va ularning xarakterli tomonlarini, xususan, qaxramonlar dunyoqarashiga xos ko‘rinishlarni tahlil etar ekan: «Qahramonlar qiyofasi tasvirini yaratishda sifatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Said Ahmad asarlarida sifatlash yo‘li bilan salbiy obrazlarning ajoyib qiyofalari yaratilgan»-deydi¹.

Xuddi shunday obraz yaratish Shukur Xolmirzayev qalamiga ham mansub bo‘lib, yozuvchi o‘zining har bir qaxramoni qifasi tasvirini chizishda epitetsga murojaat etadi. Ayniqsa, salbiy qaxramonlar obrazini yaratishda epitetsning eng xarakterli ko‘rinishlarini berishga aloxida e‘tiborni qaratadi. Masalan: «Qil ko‘rik» romanida Eshoni Sudurning kayfiyatidagi noxushlikni tasvirlashda uning asabiylashib borayotganligini ko‘rsatishda *tajang* epitetsini ishlatadi: Eshoni Sudurning, aslida kayfiyati porloq emas, past, o‘zi *tajang* edi: Ko‘ktoshda bo‘layotgan barcha ishlar, tayyorliklar unga har qalay ma‘kul. Keltirilgan matnda ishlatilgan *porloq*, *tajang* so‘zlari bir-biriga qarshi qayayilgan epitetslar bo‘lib, bu so‘zlar semantikasida *yuqori* emas, aslida *noxush* yoki insonning asabiy tusda ekanligini ifoda etuvchi belgilar borligi seziladi.

¹ Юлдашев Б. Стилистический анализ узбекской художественной прозы. Т.1989.

Sarkazm. Shukur Xolmirzayev asarlari tilini boyituvchi uslubiy vositalardan yana bir sarkazmdir. Ma'lumki, sarkazm nutqda kuchli, piching, kesatish, kinoya kabi salbiy munosabatlarni ifoda etish uchun qo'llaniladigan leksemalardir. Odatda sarkazmlar ko'chma ma'no hosil qilmaydi, biroq sarkazmni qo'llash orqali ijodkorning tasvirlayotgan voqea-hodisaga nisbatan munosabati ifodalanadi va unga uslubiy bo'yoq beriladi. Shu boisdan ham, sarkazm orqali voqea-hodisalar kinoyaviy yoki qochiriq yo'li bilan ifodalanadi.

Darhaqiqat, badiiy nutqda qo'pol, dag'al, qo'llanilishi mumkin bo'lmagan so'z va iboralarni ishlatish badiiy tilga bezak bo'la olmaydi, shuning uchun ham har bir ijodkor bunday qo'pol so'zlar o'rniga yangi variantlarni topishga harakat qiladi. Xususan, kishilarning nafsiga tegadigan, yomon bo'lgan haqorat so'zlarni bartaraf etish maqsadida uni sarkazm yo'li bilan ifoda etadi. Ana shunday ifodalar yozuvchi ijodida ham keng ko'lamda qo'llanilgan. Masalan: Ko'zingizni shira bosib qoldimi? Rais bobo, buning qorni to'yiptimi deyman, egasiga qaramayapti. Mayli, - Sodiq bir nafas piyolaga qarab turdi-da, shitob Bilan ko'tarib bo'shatdi. Yutinib, og'zini kafti bilan artdi. – O'ktam sizga rahmat,-dedi. –Boshqa gapim yo'q, siz mening xotinimga o'zshar ekansiz! Keltirilgan misollarda inson nutqida ro'y berib turadigan o'ta qyapol va eshitish noqulay bo'lgan so'zlar piching yo'li bilan ifodalangan. Jumladan, *egasiga qaramayapti* birikmasida buni kuzatish mumkin. *Siz mening xotinimga o'xshar ekansiz* iborasida maqsad, asosiy fikr ham piching yo'li bilan ifoda etilgan.

Shukur Xolmirzayev asarlari tilining go'zal, nafis va jozibador bo'lishini ta'minlovchi tasviriy vositalardan yana bir takrordir. Ma'lumki, takrorlar badiiy tilning tasirchan bo'lishini ta'minlovchi vositalar, chunki ularda badiiy tasvirlash holati ham ko'zga tashlanib turadi. Akademik V.Vinogradov takrorlarning bu holatiga baho berar ekan, ularni badiiy tasvirlash» vositasi sifatida qaraydi. Bunday holatning yozuvchi ijodi uchun ham xosligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Masalan: «Bodom shohi sollanyapti. Butoqlardan oppoq pushti gullar duv-duv

uchadi!». Keltirilgan misolimizda *duv-duv* takrorini turli xil tahlil asosida izohlab berish mumkin. *Duv* soʻzining tasviriylik xususiyati mavjud, uni takrorlash asosida taqlidiy soʻz yuzaga keltirgan. Chunonchi, *duv-duv* ter oqadi, qushlar *duv-duv* uchmoqda qoʻllanishlari mavjud. Ayni paytda bular orasidagi munosabat tamoman uzoqlashgan, birinchi qatorda qoʻllanish nuqtai nazaridan tovush taqlidni ifodalagan, ikkinchi koʻrsatilgan takroriy ifoda esa obrazli emotsiyaning kuchli ekanligini bildiradi. Ana shu matndagi *duv-duv* takrori tashqi koʻrinishga asoslangan boʻlib, badiiy tasvirni kuchli ifoda etganligi bilan ham xarakterlidir. Shuningdek, yozuvchi asarlarida *pag`a-pag`a*, *oppoq-oppoq*, *quchoq-quchoq*, *qat-qat* singari takrorlar ham badiiy tasviriy vositalar sifatida qoʻllanilgan.

2. Sh. Xolmirzayevning metaforadan foydalanish mahorati

Shukur Xolmirzayev badiiy nasri tilida kuzatiladigan tasviriyl vositalardan biri metofora hisoblanadi. Metaforik munosabat ma'lum sharoitda, ma'lum voqea – hodisani tasvir etishda ikki predmet yoki hodisa o'rtasida yuzaga keladi. Bunda buyum va hodisalar o'rtasidagi umumiy ko'rinishlar, hislatlar o'xshashlik asosida biridan ikkinchisiga ko'chiriladi. Maslan: “ Ey kalamush. Chiqmaysanmi, berman? ” (“Qil ko'prik”, 27). “ Ko'p badjahl, badkor yigitlar ekan. Ayniqsa, tulki telpak kiygani ajdaho ekan ” (“Qil ko'prik”, 107). Keltirilgan misollarda kalamush va ajdaho so'zlari metaforik holatni yuzaga keltirish uchun ishlatilgan bo'lib bu erda kalamush va ajdahoga xos salbiy jihatlar insonga ko'chirilgan. Natijada bunday salbiy xususiyatlarga bo'lgan muallif munosabati o'z badiiy ifodasini topgan.

Turli buyumlar, voqea hodisalar, jumladan, qush nomlarini anglatuvchi ko'pgina leksemalar ham metaforik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday holatga ma'noda ekspressiv – emotsionallik yanada kuchayadi hamda badiiy ta'sirchanlik oshib boradi. Masalan: “Nima qilardik – deb kuldi Eshqobilov. – U qushcha yuragidan uripdi jiyanimizni, xotin. Bo'pti. Ishqilib, jiyan sen tinch bo'lsang, bizga davlat shu ” (“ Bodom qishda gulladi ”, 201). Bu matnda qushcha so'zi “jikkak qiz” ma'nosida ishlatilgan bo'lib, yozuvchining o'ziga xos tarzda metafora yaratganligidan dalolat beradi. Ma'lumki, metaforada o'xshashlik asosida ko'chim hosil qilinadi. Unda narsa yoki hodisalar orasidagi tashqi o'xshashlik asosidagi ko'chirilgan ma'nolar (odamning tumshug'i, tog'ning tumshug'i) bilan¹ predmet va uning harakati nomlari insonga nisbatan, uning tabiati, belgilarini xarakterlashga mo'ljallab ishlatiladi (eshak, xo'kiz, qo'zichoq, bulbul). Bu kabi so'zlarning metaforik qo'llanishida katta farq bor.² “Yana Norxo'roz yo'l boshlovchi bo'lib, Osmono'parning tumshug'idan o'tqazib qo'ygan edi.” (“Qil ko'prik”, 352). Keltirilgan misolda tumshuq so'zi metaforik holatni vjudga keltirgan bo'lib, ular o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatda bir – biridan farq

¹ Усманов С. Метафора Ўзбек тили ва адабиёти, 1964. 4-сон 28-бет.

² G'oyipov S. Metafora emosional – ekspressiv munosabat ifodalash vositasi sifatida// O'zbek tili va adabiyoti. 1974. 4-son/ 36-bet.

qiluvchi tomonlar mavjud. Bu holatda soʻzning metaforik qoʻllanilishi borliq hodisasining maʼlum bir koʻrinishini tashqi oʻxshashlik asosida, yaʼni insonning tumshugʻi asosida ifodalangan. Togʻning boʻrtib chiqqan qismiga nisbatan tumshuq soʻzi qoʻllangan. Darhaqiqat, metaforalar ham boshqa koʻchim turlari kabi badiiy tilning goʻzal, nafis boʻlishi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi tasviriy vosita. Undan har bir ijodkorning oʻziga xos tarzda foydalanishi badiiy asarning koʻlamdorligi va jozibadorligini taʼminlaydi. Sh. Xolmirzayev asarlari tilida ham metaforalardan unumli va mahorat bilan foydalanganligini koʻramizki, bu ijodkorning oʻziga xos individual nutq uslubga ega ekanligidan dalolat beradi.

3. Yozuvchi asarlarida parsellyativ va ilovali qurilmalarning ishlatilishi

Parsellyasiya termini aslida fransuzcha **boʻlish, parchalash** maʼnolarini beruvchi **parceller** soʻzidan olingan boʻlib, hozirgi tilshunoslikda jumlaning boʻlinib, parchalanib ifoda etilishini anglatadi. Masalan: Toshkentga yana telegramma yuboring. Zudlik bilan (Sh. X) Oʻzbek tilshunosligida dastlab parsellyativ qurilmalar F. Ishoqov,¹ B. Maskopov² kabi tilshunoslar tomonidan “ilovali konstruksiyalar” nomi ostida oʻrganilgan.

Tilshunos M. O. Stupkina parsellyasiya va ilova hodisalarini bir-biridan farqlamaslik turli tilshunosliklarda bugungi kunda ham davom etayotganligini taʼkidlaydi va bu borada quyidagi toʻrt xil qarash mavjud ekanligini qayd etadi. “1. Parsellyasiya – ilovaning bir koʻrinishi. 2. Parsellyasiya va ilova – mustaqil xodisalar. 3. Parsellyasiya va ilova teng tushunchalar. 4. Parsellyasiya – ekspressiv sintaksis usuli, ilova – aloqa vositasining semantik ottenkasi”.³

Oʻzbek tilshunosligida F. Ishaqov va B.Maskopovlarning bu muammo borasidagi talqinlarini ayni tasnifdagi, asosan birinchi va uchinchi guruh

¹ Ishoqov F. Hozirgi zamon oʻzbek tilida ilovali qurilmalar// Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. 2-kitob . – T. OʻzFA. 1961. B. 32.

² Maskopov B. Prisoeditelnie konstruksii v uzbekskom yazike. AKD. T, 1985

³ Ступкина М.О. Парцелляция в современном болгарском языке. АКД Санк-Петербург 2008

qarashlarga to'g'ri kelishini aytib o'tish mumkin. I.Toshaliyev tomonidan parsellyasiya haqida berilgan tavsiflarda to'rtinchi guruh qarashlariga yaqinlik seziladi, ammo u aksar hollarda parsellyasiyalangan qurilmalarda qo'shimcha, ikkilamchi, keyin esga kelib qolgan ma'lumot ifodalanishini ta'kidlar ekan, uning ham parsellyasiya va ilovani torishtirganligini sezmaslik mumkin emas.

Parsellyasiyaning bevosita mantiqiy – lingvistik mohiyati mavjud sintaktik butunlikni kommunikativ bo'laklashdan, ilovaning bevosita mantiqiy lingvistik mohiyati esa mavjud sintaktik butunlikka boshqa sintaktik birlikni ilova qilishdan iborat. Ana shu jiddiy farqni hisobga olgan ayrim tadqiqotchilar parsellyasiya va ilovaning asosi gap bilan munosabatidagi prinsipial o'ziga xoslikka e'tiborini qaratadilar. Masalan, I.V.Alekseenko partelyativ va ilova qurilmalarida sintaktik jarayonlardagi yo'nalishlarning farqli ekanliklarini ta'kidlaydi. U juda o'rinli ravishda ko'rsatganiday, "ilovalanadigan bo'lak (qism) asos strukturani bo'laklamaydi, balki to'ldiradi. Bu erda yo'nalish chapga:← (markazga intilma). Parsellyasiyalangan qurilmalarda esa yo'nalish aksincha, markazdan (qurilmaning bosh mantiqiy unsuridan, ya'ni bazis qismdan) o'nga yo'nalgan:→(markaz qochma)."¹ Bu fikrga to'la qo'shilish mumkin, chunki ilovadagi va parsellyasiyadagi sintaktik kommunikativ jarayonlarni bu tarzda, ya'ni markazga intilma va markazdan qochma yo'nalishlar sifatida farqlash bu ikki hodisa mohiyatidagi farqni yanada aniq tasavvur qilishga yaxshi imkoniyat beradi. Xullas, parsellyasiya va ilova qurilmalar o'rtasida bir qator o'xshashliklar bo'lsada, ular o'rtasida jiddiy farqlar mavjud.

Parsellyatli tuzilmalar (uzilmalar) badiiy matnga og'zaki nutqqa xos intanatsion xususiyatlarni olib kirishning eng qulay va ta'sirchan usuli hisoblanadi. Og'zaki so'zlashuv nutqida ohang nihoyatda erkin va o'ziga xos bo'ladi. Ayniqsa, fikr ifodalashning odatdagi silliq, standart sintaktik shakllari o'rnida jonli, harakatchan va tarkiban tabiiy shakllangan jumllalarining qo'llanilishi so'zlashuv nutqining eng xarakterli xususiyatlaridan hisoblanadi. So'zlashuv nutqida muayyan

¹ Алексеевко И.Б. Кўрсатилган дисс. Автореф. Б.18-19

ruhiy xolatlar bilan bog‘liq tarzda turli uzilishlar ifoda parokandaliklari, fikriy notugalliklar yuzaga kelishi mumkin. “Parsellyasiyaga xos mantiqiy siljish, tuzilmaviy sinish, semantik intanatsion sakrash ixcham qismlardan tarkib topgan tarqoq, uzuq – yuluq sintaktik qurilishni yuzaga chiqaradi.”¹ Bunday nome’yoriy tuzilmalar muloqot ishtirokchilari uchun fikrni idrok etish borasida qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ayniqsa, ular “bir chiziqli” bayonga nisbatan tinglovchi uchun tez, oson va ta’kidlanayotgan bo‘lakni aniq tushunishga imkon beradi. Badiiy matnda qo‘llanilgan parsellyatli konstruksiyalarni ekspressiv sintaksisning maxsus ifoda shakli tarzida o‘rganish va ularning linvopoetik mohiyatini ochish tadqiqotchilar oldidagi dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Biz ushbu lisoniy hodisa mohiyatini har bir asarida tilimizning betakror badiiyati va ifoda balog‘atini bequsur namoyon qilgan adib Shukur Xolmirzayev ijodi misolida o‘rganishga harakat qildik. Adib asarlaridagi qahramonlarga xos samimiyat va sarkash ruh mutaolaa jarayonida kitobxonni befarq qoldirmaydi. Uning qahramonlari nutqida ta’bir joiz bo‘lsa, stenografik tasvir izi sezilib turadi. Qahramonlarining jonli nutqida ishlatiladigan kreativ moneralar, keskin fikriy burilishlarni aynan ifodalash istagi parsellyatli konstruksiyalarga ehtiyojini tabiiy qonuniyat darajasiga olib chiqadi. Masalan:

“Yo‘ldoshboy bilan do‘stligimiz boshlangan kunlar edi. U meni saroylarga ergashtirib borib, bir echkini ko‘rsatdi. Qip qizil “kiyikdan tarqalgan!” dedi”.²

Sh.Xolmirzayev o‘z asarlarida ko‘pincha ikki parselyatdan iborat konstruksiyalarni qo‘llaydi. Bunda bir porsellyat orqali ifodalash mumkin bo‘lmagan, alohida ta’kidlanishi zarur bo‘lgan, muhim hisoblangan belgilar ikkinchi parselyat halqa sifatida asosdan keyinga chiqariladi. Asos qismidagi to‘ldiruvchi maqomida kelgan echkini so‘zi birinchi parsellyatda u bilan bog‘liq rang orqali muayyanlashtirilgani holda uning kiyikdan tarqalganligini ham ta’kidlash ehtiyoji ikkinchi parsellyat orqali qondirilmoqda. Ayni konstruksiyani

¹ И.Ташалиев Ҳозирги ўзбек тили. Синтаксис. Синтактик ва синтагматик қайта бўлиниш. Парцелляция. Т.Зарқалам, 2004. 104б.

² Ш.Холмирзаев. Танланган асарлар 3жилдлик. 3-жилд: Т. Шарқ, 2003. 18б.

qayta tartiblaganda birinchi parsellyat hech o'zgarishsiz asos bo'lak tarkibiga singib, joylashib ketaverishi ma'lum. Lekin ikkinchi parsellyatda faqatgina ko'chirma gap shunday xususiyatga ega. Muallif gapi esa har ikki patsellyatga ham dahldor xisoblanadi. Shuning uchun "belgi ta'kidi", "belgini ta'kidlash" ma'nosi asos bo'lak tashqarisiga chiqarilgan har ikki komponentda ham mavjud.

"Burgut havoga uchardi. Tag'in qaytib kelardi. Agar ipi uzunroq qilinsa..." (19b).

Mazkur misolda burgutning havoga uchishi va yana qaytib kelish sharti parsellyat sifatida ajratilgan bo'lakda ifodalangan. Aslida, birinchi va ikkinchi asosning mazmuniy yaxlitlashuvi, birikuvi orqali anglashiladigan harakatning davomiyligi ham aynan parsellyatda ifodalangan shartga bog'liq. Aks holda mazkur harakatning bajarilishi yo'qqa chiqadi. Ya'ni burgutning uchishi uchun ham, qaytib erga qo'nishi uchun ham ip uzun bog'langan bo'lishi lozim. Bu konstruktivni standart, "bir chiziqli" jumla tarzida qayta tartiblab chiqamiz. Agar ipi uzunroq qilinsa, burgut havoga uchardi, tag'in qaytib kelardi. Ta'kidlash lozimki bu tarzdagi gapda ta'sirchanlik yo'qolishi barobarida mazmuniy aniqlikka ham putur etadi. Ya'ni, ayni gapdagi muhim va nomuhim jihat sezilarsiz darajaga tushishi orqali badiiy mazmun bir qadar xiralashadi. Shu ma'noda shart ifodasining parsellyat sifatida asosdan tashqariga chiqarilishi mazmun tiniqligi uchun ham, ta'kidni kuchaytirish uchun ham qahramon nutqini konkretlashtirish uchun ham birdek hizmat qiladi.

"Vo darg', o'shanda Jonboev degan bir firqa a'zosi arg'imchog'imdi kesib tashlab edi. Keyin qandaydir aybi bilan otuvga hukm bo'lib ketdi... he, ko'p yig'laganman. Uning uchun emas! Arqon uchun... Tavba xudo-ya, tavba qildim. Arg'imchoq ham eskilik sarqiti ekan" (68b).

Bu tarzdagi tuzulmalar mahoratli adib asarlarida ko'p uchraydi. Ya'ni, asos qism bilan parsellyat orasiga ta'kid yukli to'liqsiz gap kiritiladi. Misol tahlili to'liq bo'lishi uchun Jonboev bilan bog'liq tafsilotlar ifodalangan jummalarni ham olishga to'g'ri keldi. Aslida, he, ko'p yig'laganman, uning uchun emas! Arqon uchun...

Misolning o'zi porsellyativ konstruksiya tahliliga etarli. Ammo parsellyatdagi arqon so'zining ma'nosi qahramonning nima sababdan arqon uchun yig'laganini etarli darajada tushunarli bo'lmasligi mumkin edi. Shu bois ayni holatlarni oydinlashtiruvchi jumlar ham olindi. Jonboev hikoyachi qahramonning arg'imchog'ini eskilik sarqiti deya kesib tashlagan va bola hech narsaga yaroqsiz holga kelgan arqon uchun ko'p yig'lagan edi. Bundan olidin Jonboevning o'z aybi bilan otuvga hukm qilingani xabari aytib o'tiladi. Yig'laganman so'zi Jonboevning otuvga hukm qilinganligiga bevosita ishora qilayotgandek holatni yuzaga keltiradi. Qahramon bu holatdan chiqib ketish uchun porsellyatdan oldin uning uchun emas! To'liqsiz gapini keltirishni ma'qul ko'radi. Bu esa porsellyatdagi ta'kidni ikki hissa kuchaytiradi. Ya'ni, hatto arqonni ham eskilik sarqiti deb bilgan Jonboyevning o'lganida arqonchalik ham qiymat topmaganligi ana shu tarzda konstruksiya orqali ifodalangan. Bunday tuzilmalarni asos va porsellyat o'rtasidagi masofaga ko'ra shartli ravishda distant porselyatli konstruksiya deb atash mumkin. "–Ena, siz o'zingiz shu yig'indan xursandmisiz? – deb jiddiy so'radi Habibullo. – ko'rdik, haliyam sizni hurmat qilishar ekan. Juda! Ayniqsa, Xurram aka..."(82b)

Bu misoldan anglashilganidek, gap strukturasini atayin bo'laklarga ajratish orqali uslubiy jihatdan betaraf gapning ekspressiv variantini hosil qilish mumkin ekan. Agar ayni konstruksiyani ko'rdik, haliyam sizni hurmat qilishar ekan tarzida oladigan bo'lsak, bu jumla hech qanday jihat bilan alohidalikka ega emas. Muayyan holatga qahramonning oddiygina munosabati bildirilgan holos. Unda qahramonning voqealikka nisbatan farqli munosabatini sezish mumkin emas. Bu tarzda "silliq", "jonsiz" gapni "xarakatchan", "jonli" ifodaga aylantirish uchun muallifdan katta mehnat talab qilinmaydi. Shunchaki kichik bir punktuatsion tryuk orqali ko'zlangan samaraga to'liq erishilgan. Parsellyat orqali qaysi bo'lak alohida ta'kid olishi lozimligi aniq ko'rsatib berilgan. Zero, ta'kilanuvchi bo'lakning gap tarkibidan tashqariga chiqarilishidan asosiy maqsad ham shunda. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Xo'sh, parsellyat sifatida tashqariga chiqarilgan bo'lak ko'proq kuchliroq ta'kid oladimi yoki parsellyat bilan aloqalantiriladigan bo'lakmi?

Berilgan misol asosida bunga javob qidiradigan bo'lsak har ikki bo'lak ham u yoki bu darajada ta'kid oladi. Ya'ni, gap tashqarisiga chiqarish orqali juda so'zi intonatsion jihatdan ham, grammatik jihatdan ham alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Lekin uning o'zi mustaqil holda asos bo'lakdan ayri holatda hech qanday ma'noga ega emas. U o'zi birikib kelishi kerak bo'lgan so'z bilan aloqalantirilgandagina muayyan ma'noga ega bo'ladi. Ko'rsatilgan hurmat darajasining juda kuchli ekanligini bu qadar aniq ifodalash uchun mutloq dezartikulyasiyaga ehtiyoj seziladi. Og'zaki nutqda bunday maqsad ifodasi uchun mos va qulay bo'lgan turli tarzdagi modellar mexanizmlar mavjud. Yozma nutqda parsellyasiya ana shunday mexanizmlarning eng xarakatchani va qo'llanish uchun eng qulayi xisoblanadi. Misolda fikrni ta'sirchan ifodalash usullaridan biri sifatida e'tirof etadigan to'liqsiz gap ham keltirilgan. Undagi ayniqsa so'zi to'liqsiz gapni kontekst tarkibidagi to'liq gap kesimi bilan aloqalashtirishga xizmat qiladi.

Gap bo'laklari shaklidagi parsellyatlar Badiiy matnning sintaktik shakllanishi tekshirilganda turli sintaktik vazifada keluvchi gap bo'laklarining parsellyat sifatida final tinish belgisidan keyinga chiqarilganligini kuzatish mumkin. Parsellyativ kanstruksiylar tabiatini o'rganish jarayonida sintaktik jihatdan muayyan gap bo'lagi vazifasida kelgan "uzindi" bo'laklarning alohida ekspressiv maqsadlarda qo'llanilganligi kuzatiladi.

1. Ega shaklli parsellyat Badiiy asarlardan to'plangan faktik materiallar shuni ko'rsatadiki, parsellyat sifatida ajratilgan bo'lak muallifning estetik niyati ro'yobiga xizmat qiladi. Bunda, asosan, ega sintaktik maqomidagi bo'lak muayyan gap tarkibidan uzib olinganda, o'sha bo'lak aynan ta'kidlanayotgan bo'ladi. Masalan, Navro'zda ochilib ketishardi. **Hammasi** (SH. Xolmirzaev, "Mangu yo'ldosh hikoyasi") parsellyatli konstruksiyasi deparsellyasiyalansa, Hammasi navro'zda ochilib ketishardi shaklidagi gap yuzaga keladi. Ana shunday gapda ega pozitsiyasidagi hammasi so'zi parsellyat sifatida gapdan tashqariga chiqarilgan.

Ba'zi tadqiqotchilar parsellyativ va ilova konstruksiyalarini bir hodisa sifatida talqin qilishdan tashqari, ularning gap bo'laklariga munosabati masalasida bir qator chalkashliklarga yo'l qo'yadilar. Masalan, B. Maskopov " ega vazifasidagi ilova konstruksiyalar " haqida gapirib, shunday yozadi: "Asosiy jumlada ega mavjud bo'lmaydi, ilovalanadigan ega asosiy jumladagi ochiq qolgan ega sintaktik pozitsiyasini egallaydi." Bilmadim. Men u kishini ikki marta ko'rganman xolos. – Ukasini tanirsiz. **Nabijon** (I. Rahim). Dilafro'z o'zi bilan olib kelgan mevalvrini stolga qo'ydi. **Gilos , handalak** (I. R) Ularga ozuqa ham ekamiz. **Kungaboqar** (I. Rahim).... Bu misollar, albatta parsellyasiya emas, ilovali konstruksiyalardir, muallif bu borada haq. Ammo ajratib ko'rsatilgan ilovalar o'z mohiyatiga ko'ra asosiy gap tarkibiga kira olmaydi, buning ustiga asosiy jumlada ochiq qolgan ega sintaktik pozitsiyasi yo'q. Asosiy jumlalardagi egalar siz , Dilafro'z, biz tarzida bevosita (fe'ning grammatik shakli bilan) ifodalangan. Ko'rinadiki, mazkur ilova konstruksiyalar ega shaklida emas, balki boshqa bo'laklar shaklidadir.

2. Kesim shaklidagi parsellyat Kesimning parsellyasiyalanishi (ilovalanishi) rus tilida ayrim holatlarda, xususan, tarkibli kesimning etakchi qismi asosiy gapda va ilovada uyushiq bo‘lak maqomda bo‘lgan holatlarda ba‘zan kuzatilishini ayrim tadqiqotchilar aytganlar. O‘zbek tilshunosligida uyushiq kesimlar masalasining yangicha talqinlari ilmiy –ta’limiy amaliyotga kirdi.

Aytish mumkinki, kesim shaklidagi parsellyat o‘zbek tilida tarkibli yoki predikativlik (kesimlik) shakllari bir marta qo‘llangan uyushiq kesimlar doirasidagina kuzatilishi mumkin. Masalan, mana bu parchaga e’tbor beraylik: mening fe’limni biladi: qo‘rqitishim ham mumkin. Hatto maqtashim ham (Sh. Xolmirzayev “O‘zbek bobo” hikoyasi). Parchadagi Hatto maqtashim ham konstruksiyasi kesim shaklidagi parsellyatdir. Mazkur parchani deparsellyasiyalasak, mening fe’limni biladi: qo‘rqitishim ham mumkin, hatto maqtashim ham mumkin shaklidagi gap yuzaga keladi. Bu gapda qo‘rqitishim, maqtashim so‘zlari kesimning atov birliklari qismidir, mumkin so‘zi esa ularning to‘liq kesim sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Sh.Xolmirzayev asarlarining sintaktik xususiyatlarini tadqiq etish orqali matn tilshunosligida hali o‘z echimini kutib yotgan bir qator muammolarni xal qilish zaruriyati mavjud.

3. To‘ldiruvchi shaklidagi parsellyat. So‘zlovchining koomunikativ niyati va emotsional munosabatining gapda aktual ifodalanishida to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi sintaktik bo‘lakning ham alohida o‘rni bor parsellyativ konstruksiyalarda “to‘ldiruvchi xolatidagi argument turli refirent ma’nosini ifodalaydi”¹. Ayni argument parsellyat sifatida gap tashqarisiga chiqarilganda, asosiy qism predikati bilan sintakgmatik munosabati sezilarli darajada zichlashgan bo‘ladi. Masalan aytmoqchi, sizga rahmat aytmoqchi edim, - dedi. – Bog‘ni olish fikri sizdan chiqqandiku? Sizdan. (Sh.Xolmirzayev)

¹ Нурманов А, Махмудов Н ва бошқалар Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси Т. Фан 1992 906.

Asosdagi to'ldiruvchining eng xarakterli yoki konkret belgisini parsellyatda aytish orqali bo'lakni aktuallashtirish ham badiiy asar tilida ko'p uchraydigan usul xisoblanadi. Masalan: Biron narsamas, zo'r yodgorlik qurdiramiz u erga! – So'ng qisinibroq dedi: - O'zim ko'rmaganman u erni. Cho'qqini. (Sh.Xolmirzayev) Bu misolimizdagi u erni bo'lagi to'ldiruvchi pozitsiyasida kelgan bo'lakda umumiylik aniqbelgilanmaganlik ma'nosi mavjud. Mana shu mavhum tushuncha parsellyat orqali konkretlashtirilgan.

To'ldiruvchini poetik aktuallashtirishda birdan ortiq parsellyatli qurilmalardan foydalanish ham kuzatiladi. Masalan: - Ulardan uzir so'rashim kerak. O'shalardan. Shokkokligim uchun. (Sh.Xolmirzayev) Ha keyin tushundim. Ularning xatti xarakatlarini ham. Boshqasini ham. (Sh.Xolmirzayev) Ushbu misollarni ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hammasi uchun umumiy bo'lgan bir holatni payqamaslik mumkin emas. Birinchi gapda parsellyatlar asos qism tarkibida parallel ravishda shakllantirilgan. Ikkinchi misolimizda esa, boshqacharoq xolatni kuzatamiz. Ya'ni, asosda ifodalanishi kerak bo'lgan to'ldiruvchi atayin gapning tashqarisiga chiqarilgan. Bunda ko'proq bo'laklab ifodalashga yaqin xolat mavjud.

To'ldiruvchi parsellyatlar ham so'z birikmasi kabi tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'lishi mumkin. Murakkab tuzilishga ega bo'lgan parsellyatlar asosda etarli darajada izohlanmagan bo'lakni kengroq, atroflicha izohlash va to'ldirishga xizmat qiladi. Masalan: - Polvon bobodan ruxsat olish kerak deysizmi? Terakni kesish uchun. (Sh.Xolmirzayev) – mening fe'limni biladi: qo'rqitishim ham mumkin. Hatto maqtashim ham. (Sh.Xolmirzayev)

Umuman to'ldiruvchi shaklidagi parsellyatlar badiiy matnda ega va kesim shaklidagi parsellyatlarga qaraganda ancha keng tarqalgan.

4. Aniqlovchi shaklidagi parsellyatlar. Aniqlovchi shaklidagi parsellyatlarni gap tashqariga chiqarganda fikrni oydinlashtirish talab qilinadi. Bunday parsellyatlarni gap tashqarisiga chiqarish yozuvchining turli maqsadlariga ko'ra amalga oshadi. Ko'pincha sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilar parsellyativ

bo‘lak vazifasida qo‘llaniladi. Masalan, Bultur bahorda eshigimiz oldidagi gullarni sug‘orayotgan edim, yap yangi “Neksiya” kelib to‘xtadi. (O‘.X) Bu gapda yap-yangi aniqlovchisini parsellyativ holatda qo‘llash ham mumkin: Bultir bahorda eshigimiz oldidagi gullarni sug‘orayotgan edim, “Neksiya” kelib to‘xtadi. Yap-yangi. Yozuvchi mashinaning yangiligini ko‘rsatish maqsadida bunday xolatda qo‘llash mumkin.

Aniqlovchi shaklidagi parsellyatlar badiiy matnda hamisha aktuallashgan bo‘ladi. Ayni paytda, aniqlovchi-aniqlanmish munosabatning o‘ziga xos zichligiga ko‘ra aniqlovchi shaklidagi parsellyatning asosiy gap bilan semantik-grammatik aloqasi aniq bilinib turadi.

5.Hol shaklidagi parsellyatlar. Yozuvchi hol shaklidagi parsellyatlarni badiiy nutqda o‘zining poetik maqsadini yorqin namoyon qilish maqsadida qo‘llaydi. Masalan: Ena siz o‘zingiz shu yigitdan xursandmisiz – deb jiddiy so‘radi Xabibullo. – Ko‘rdik haliyam sizni xurmat qilishar ekan. Juda! Ayniqsa, Hurram aka. (Sh.X) Ko‘rinib turganidek, strukturasini atayin bo‘laklarga ajratish orqali uslubiy jihatdan betaraf gapning ekspressiv variantini hosil qilish mumkin ekan. Agar bu qurilmani Ko‘rdik, haliyam sizni juda hurmat qilishar ekan tarzida oladigan bo‘lsak, bu jumla hech qanday jihati bilan alohidalikka ega bo‘lmay qoladi. Muayyan holatda qahramonning oddiygina munosabati bildirilgan, xolos. Unda qahramonning voqealikka nisbatan farqli munosabatini sezish mumkin emas. Parsellyat orqali qaysi bo‘lak alohida ta’kid olishi lozimligi aniq ko‘rsatib berilgan. Zero, ta’kidlanuvchi bo‘lakning gap tarkibidan tashqariga chiqarilishidan asosiy maqsad ham shudir. Yozuvchi Sh.Xolmirzayev asarlarida holning barcha turlari parsellyativ holatda qo‘llanilganligini ko‘ramiz. Bu bilan SH.Xolmirzaev asarlarining tili boshqa adiblarning asarlaridan ajralib turadi.

Ikkinchi bob

1.Yozuvchi asarlari tilining leksik qatlamlari va uslubi

Badiiy asar tili o'zbek tilshunosligida qadimdan hammani o'ziga jalb qilib kelayotgan munozarali va qiziqarli soxalardan biridir. Har bir nutq o'ziga xos vositalarga va sintaktik qonuniyatlariga egadir. Hozirgacha turkiy tillarda, jumladan o'zbek tilshunosligida badiiy uslubga xos vositalar xilma-xil bo'lib, ularga epiteb, istiora, mubolag'a, o'xshatish, metaforani kiritish mumkin. Bundan tashqari boshqa uslublarga xos vositalar ham qo'llanilishi mumkin. xullas, til jumladan, o'zbek tili uslubiy vositalarga juda boy bo'lib, ularni akademik G'.Abyuduraxmanov o'n ikki guruhga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi¹. Shulardan sintaktik vositalarga soda gaplarning mazmun va ohangiga ko'ra turlari, uyushiq va ajratilgan bo'laklar, kirish, inversiya, sintaktik sinonimiya, qo'shma gap, matn, takroriylik va boshqalar. Demak, bularning har biri badiiy uslub uchun ahamiyatli bo'lib ularni alohida-alohida chuqur o'rganishni tavsiya qiladi. Chunki ba'zi sintaktik kategoriyalar ham ma'lum talablarga ko'ra ma'nolarni ifodalashi uchun nutq uslubini yaratuvchi vosita bo'lib xizmat qiladi»².

Bular ichida deydi akad.G'.Abduraxmanov «undalmalar o'z leksik ma'nosidan tashqari ma'lum bir uslubiy mazmunga ham ega bo'ladi», - deb ta'kidlagan edi. Ayniqsa, gap oxirida va orasida qo'llangan undalmalarda emotsional ma'no kuchli bo'ladi. O, jonim Farg'ona, oq oltinim, bog'im! (Oybek). Bu odamlarga juda-juda ko'p narsalar yarashadi, otaxon! (A.Qahhor). Ol, jiyan yo'l yurib kelgansan! (Oybek).

Emotsionallikni orttirish uchun undalmalar bir xil shaklda yoki turli shaklda takrorlanishi mumkin. Masalan, Begim, begim, deb orqasidan yugurdi qiz.

¹ F.Абдурахманов. Ёзма нутк услубини яратувчи воситалар. ЎТА. 1994. 3-сон.

² Мукаррамов М. Научный стиль современного узбекского литературного языка и семантико-функционального аспекте. АДД.Т.

Demak, undalmalarning uslubiy tomonlari bilan bog‘liq tomonlarni ma’lum bir yozuvchi asarlari misolida o‘rganish ham katta ilmiy xulosalar berishi mumkin.

Hozirgacha undalmalar o‘zbek tilshunosligida nazariy tomondan chuqur o‘rganilgani bilan ularning uslubiy xususiyatlari alohida yoritilgan emas. Ayniqsa, tilni tizim sifatida o‘rganila boshlagandan keyin ularning mazmuniy qirralari yana ham chuqur o‘rganila boshlandi. Undalmalarning semantik tomonlarini yoritishda albatta badiiy asardagi uslubiy tomonlarini xam keng yoritish mumkin. Buning uchun albatta, sintaktik birliklar. Jumladan, undalmalar sistem tahlil usulida o‘rganilishi lozim.

Tilshunoslikda pressuppozitsiya (tagbilim) termini ostida gap tarkibida bevosita ifodalanmagan, yashirin holda aks etgan ma’no tushuniladi. Sodda gap tarkibidagi ayrim so‘zlar, gap bo‘laklari bilan sintaktik jihatdan bog‘lanmagan grammatik shakllar ham alohida pressuppozitsiya ifodalab, mazkur (ayni) sodda gapni semantik murakkablashtirishi mumkin. Bunday holatda ayrim so‘z yoki grammatik shakl bilan ifodalangan propositsiya o‘zining ixcham shakliga ega bo‘ladi. Kommunikantlar (so‘zlovchi va tinglovchilar) uchun uning tushunarli bo‘lishida pressuppozitsiya yordamga keladi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda gapning pressuppozitsiyasiga qiziqish o‘zbek tilshunosligida ham ortib bormoqda¹.

Pressuppozitsiya – bu gapning kontekstga asoslangan ma’nosi bo‘lib, sintaktik konstruksiyalarning ma’no aspekti bilan uzviy bog‘liq hamda uning o‘zi pragmatika tarkibiga kiradi. Har qanday gapni semantik jihatdan tavsiflash ma’lum miqdordagi pressuppozitsiyaga tayanadi. Chunki pressuppozitsiya nutq jarayonining u bilan bog‘liq bo‘lmagan «g‘ayri nutqiy» sharti bo‘lib, uning asosini tashkil qiladi. Pressuppozitsiya ayrim so‘zlar bilan ham, grammatik shakllar bilan

¹ Махмудов Н. Прессуппозиция а гап // Ўзбек тили ва адабиёти 1986.

ham berilishi mumkinligini hisobga olganda, undalmalar xam alohida bir o'ziga xos pressuppozitsiya ifodalaydi deb ayta olamiz.

Undalmali gapning pressuppozitsiyasi bayon etilayotgan ikrga xos bo'lgan uning ichki matni hisoblanadi.

Tilning kommunikatsiyasi ob'ektiv va sub'ektiv xarakterdagi o'zaro bog'langan omillarning harakatdagi tizimi bo'lib, u insonni muloqotga undaydi, shuningdek, muloqot jarayonidagi kommunikantlarning holatini, xarakterini ham belgilaydi. Muloqot jarayoni, birinchidan, kishilarni o'zaro so'zlashuvga undash, o'sha paytdagi vaziyat va muloqot qatnashchilarining bir-birini to'g'ri tushunishini o'z ichiga oladi. Bulardan so'zlashuvga undash muloqot jarayonning muhim omillaridan biri bo'lib, unda so'zlochi aziyatga mos raishda qaysi til birliklaridan foydalanishni o'zi tanlaydi. Bu bilan u tinglovchini muloqotga tayyorlaydi. So'zlashuv jarayonida qaysi til birligini tanlash ko'pincha so'zlashuv vaziyati, maskani, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan sub'ektiv munosabati bilan belgilanadi. Chunki har qanday muloqot jarayoni ma'lum bir ekstralingvistik vazifani o'taydi. Masalan, odamlar uyda, ishda, transportda, ko'chada, turli mashg'ulotlarda o'zaro muloqotda bo'ladi. Ana shu muloqot jarayonida umumiy platforma asosidagi bir qolipga tushgan (normalangan) aloqalar tizimi deb ataluchi ijtimoiy munosabatlar shakllanadi. Bu munosabatlar huquqiy, ma'muriy, kasb a mehnat bilan bog'liq ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-madaniy, oilaviy a boshqalarga ko'ra belgilanadi.

Undalmalarni ana shunday turli sohalarda qo'llash ularning pragmatik pressuppozitsiyalari bilan belgilanadi. Ma'lumki, undalmalar gap yoki uning bo'laklari bilan semantik munosabat hosil qiladi. Bu munosabat adresatlik munosabat bo'lib, so'zlovchining fikri o'sha adresatga qaratilgan bo'ladi. U tinglovchi sifatida shaxs yoki predmet bo'ladi.

Undalmaning eng muhim xususiyati so'zlovchining tinglovchiga nisbatan turli sub'ektiv munosabatlarini pressuppozitsiya tarzida aks ettirishidir. Har qanday undalmada so'zlovchining tinglovchiga nisbatan ta'kidlash, ogohlantirish,

minnatdorchilik, mamnunlik, suyish-erkalash, norozilik, g'azab kabi ruhiy holatni, shuningdek, adresatning sifat belgilari haqida qo'shimcha ma'lumotni ifodalovchi pressuppozitsiya mavjud bo'ladi. Masalan, Baratoy-Ozarning san'atkor qizi. Ko'nglingda Bokuning oq Tongi yashar («sharq yulduzi») gapida asosiy ma'nodan tashqari Ozarda Baratoy nomli qiz yashashi, uning san'atkorligi, shuningdek, Ozarbayjon qiziga so'zlovchining chuqur samimiyatdan iborat ijobiy munosabatini bildiruvchi pressuppozitsiya ham anglashiladi. Bu pressuppozitsiyaning moddiy substrati-tashqi signali «Baratoy-Ozarning san'atkor qizi» undalmasidir. CHuni gapda shu undalmaning qo'llanilishi, ayniqsa, ajratilgan undalma holida qo'llanishi aytilgan pressuppozitsiya uchun yo'l ochgan.

Yoki:

- Eshon, hujrani tayyorlaganmisan?
- Yasatib qo'yganman, bek aka.

Birinchi gapdagi undalma (eshon) orqali so'zlovchining tinglovchiga nisbatan e'tiborsiz, mensinmaslik pressuppozitsiyasi anglashilayotgan bo'lsa, keyingi gapdagi undalma (bek aka) orqali tinglovchining mavqei so'zlovchidan ustunligi, u adresatning yugurdagi, ulfati, agenti, mirzasi-uning uchun hamma narsasi ekanligi pressuppozitsiyasi anglashiladi. Ko'rinadiki, o'zaro muloqotda, murojaat qilish uchun avvalo kommunikantlar kerak. Ya'ni X Uga murojaat qiladi. X Uni taqozo etadi. X U esa odamlardir (boshqa jonli, jonsiz predmetlar ham bo'lishi mumkin, ammo biz bu erda Ayni odamlarga murojaatni - undashni nazarda tutamiz).

Antroponimik undalmalar nutq ishtirokchilari – kommunikantlar orasidagi aloqani tiklash vositasi sifatida qo'llanib, nutq adresatining atash vazifasini bajarish bilan birga, unda bo'lgan sub'ektiv munosabatini ham pressuppozitsiya tarzida aks ettiradi. Masalan, - Sobir Umarovich, sizning sog'ligingiz xalq uchun, hukumat uchun kerak (K.Yashin) gapida tinglovchiga bo'lgan cheksiz ehtirom pressuppozitsiyasi qo'llanayotgan undalma orqali berilgan, ya'ni Sobir Umarovichni hamma hurmat qiladi, hamma yaxshi ko'radi pressuppozitsiyasi. –

gapir, Qo'zivoy: - Yo'qol ko'zimdan, benomus satang! (H.H.Niyoziy) – Gapir, Ahmad qoqining qizi (H.H.Niyoziy): - He, sen aralashma bo'tqa! Gaplaridagi undalmalar orqali berilayotgan pressuppozitsiyani tushunish qiyin emas.

Undalmalarni qo'llanishga ko'ra ikkiga ajratish mumkin:

1. Tanish adresatga murojaat
2. Notanish yoki chala tanish adresatga murojaat

Tinglovchi (adresat) tanish pressuppozitsiyasida undash ositalari sifatida atoqli otlar, qarindoshlik atamalari, adresatning xarakteri, odatini bildiruvchi deskripsiyalar (tasvirlash xarakteridagi so'zlar) qo'llaniladi.

Adresat notanish guruhida esa turdosh otlar, nutq qaratilgan shaxsning (adresatning) yoshi, tashqi ko'rinishi, joylanishi va boshqalarni xarakterlovchi deskripsiyalar ishlatiladi.

O'zbek tilida notanish adresatga murojaat qilinganda, ko'proq pochcha, amaki, xolla, kennoyi, yaxshi qiz, yigitcha, opa, singil undalmalari qo'llanadi va ular shu so'zlarga mos keluvchi adresat katta yoshdagi notanish erkak, katta yoshdagi notanish ayol, o'rta yoshdagi notanish ayol, , tengdosh yoki yoshroq qiz, yigit, kattaroq yoki kichikroq yoshdagi ayol pressuppozitsiyasini, shuningdek, hurmat yoki kesatiq kabi ijobiy yoki salbiy munosabatlar pressuppozitsiyasini aks ettiradi.

Tanish yoki chala tanish adresatga nisbatan qo'llanuvi undalmalarda muloqotning (murojaatning) turli sohalarga (qismlarga) bo'linish pressuppozitsiyasi aks etadi. Ularni to'rt guruhga ajratish mumkin:

1. Ma'muriy-huquqiy undalmalar: kishilarning ismi, familiyasi, otasining ismi, hamkasb, usta, ustoz, o'rtoq, do'st so'zlari yoki shu so'zlardan oldin muhtaram, aziz, hurmatli, ko'p hurmatli, qadrli so'zlarini keltirish Bilan.

2. Ijtimoiy-hayotiy undalmalar xolla, pochcha, amaki, kennoyi, bobo, o'rtoq, birodar so'zlari yoki shu so'zlardan oldin hurmatli, qadrli, muhtaram

so‘zlarning keltirish yoki shu so‘zlarga ko‘pincha «jon», ayrim hollarda «xon» qo‘shimchalarini qo‘shish bilan.

3. Ijtimoiy-madaniy undalmalar: onaxon, otajon, akajon, opajon, singlim, qizim, do‘stim, o‘g‘lim kabi.

4. Kasb-xunarga oid undalmalar: hamkasb, usta, ustoz, domla, aya, otin aya, dehqon kabi.

Ma‘muriy - huquqiy va ijtimoiy hayotda qo‘llanadigan undalmalar pressuppozitsiyasi yo mansabdor shaxslar yoki oddiy shaxslar murojaat qilayotganini bildirib turadi.

Chunonchi, mansabga ega bo‘lgan, yuqori lavozimli mansabdor shaxslar yuqorida zikr etilgan leksemalarning barchasidan shundayligicha erkin foydalansa, mavqei mansabi jihatdan, quyiroq turgan oddiy kishilar o‘sha leksemalar yoniga mansabi yoki kasbini hamda hurmat ma‘nosini ifodalovchi so‘zlarni qo‘shib murojaat qiladi. Masalan: Yana qanday fikrimiz bor, ustoz-yana qanday fikringiz bor, muhtaram ustoz: Azizov, aytingchi - Hurmatli Azxizov, aytingchi; xola, men ham gapirsam maylimi? – Xolajon, men ham gapirsam maylimi?

Ijtimoiy-madaniy va kasb-hunraga oid undalmalarni qo‘llashda esa ko‘pincha kommunikativ yoshi yoki jinsi bilan bog‘liq pressuppozitsiyalar anglashiladi. Masalan, do‘stim, (tengdosh va hurmatli); hamkasb (situatsiyaga qarab: tengdosh, katta, kichik yoshdagi kishilar); kennoyi (o‘rta yosh ayol), otaxon (katta yoshdagi erkak va hurmat) ma‘nosi va boshqalar.

Demak, gap tarkibidagi undalmalar pressuppozitsiyasi tasniflovchi va xarakterlovchi belgilarni o‘z ichiga oladi. Masalan, Hurmatli ustoz, qarindoshingiz doimo bosh egaman gapidagi hurmatli ustoz undalmasida avvalo odam, yoshi katta, «erkak kishi» pressuppozitsiyasi tasniflovchi belgi bo‘lsa, «ilmiy hurmatli» kishi pressuppozitsiyasi xarakterlovchi belgilardi.

Tasniflovchi belgilar ekzistensial ma‘lumot bersa, xarakterlovchi belgilar sub‘ektiv xarakteristika beradi. Bu har ikki axborot Ayni gap tarkibida

undalmadan anglashiladigan pressuppozitsiya orqali beriladi. SHuningdek, undalmali gap tema-rematik xarakterda bo'ladi. Ayni gapda undalma (hurmatli ustoz) rema bo'lsa, boshqa so'zlar (qarshingizda doimo bosh egaman) tema hisoblanadi (rema-yangi ma'no bildiradigan qism). Rema doimo pressuppozitsiya ta'sir doirasida turadi. Mantiqiy urg'u ayni shu undalmaga tushganidan yuqoridagi gapdan boshqa odam oldida bosh egmayman pressuppozitsiyasi kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, undalmalar pressuppozitsiyasi gap semantikasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan pragmatikaning o'rganish ob'ektidir. Chunki nutq vaziyati bilan kontekst pragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Ayni gapdan kelib chiqadigan propozitsiyaning kommunikantlarga tushunarli bo'lishi uchun nutq vaziyati va kontekst juda zarur. Bu esa undalmalar pressuppozitsiyasini pragmatik yo'nalishida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Ob'ektiv olam, uning tildagi ifodasi xamda ifoda tarkibidagi semantik tuzilishida tildan foydalanuvchining ob'ektiv va sub'ektiv munosabati kabi masalalar bilan tilshunoslikning yangi yo'nalishi-pragmatik shug'ullanadi. Biroq bu masalalarni hal qilishda tilshunoslikning alohida sohasi sifatida pragmatika o'zining aniq chegarasiga ega bo'lmadi, uning muammolari ba'zan sintaksis tarkibiga kiritilsa, ba'zan bu masalalar semantika doirasiga kiradi degan yangilish fikrlar bildirildi.

Sintaksis-yunoncha: «tuzilgan, qurilgan ; semantika-yunoncha: «ifodalangan, ifodalash»; pragmatika (pragma)-grekcha: «amalga oshirilgan, bajarilgan ish»¹, shuningdek «harakat», «faoliyat» ma'nolarini ifodalaydi. Pragmatika atamasi ilmiy hayotga semiotika asoschilaridan biri, mashhur belgi nazariyot-semiotikani uch qismga ajratadi. «sematika» belgilarning ular ifoda etgan narsalarga munosabatini, «sintaktika» belgining belgiga munosabatini, «pragmatika» esa belgining tildan foydalanuvchiga munosabati haqidagi ta'limotni o'rganadi. Mana shu qismlarning birgalikda tahlil qilinishi nazariy

¹ Махмудов Н. Ўзбек тили стилистикасининг долзарб масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1990.

grammatikaning asosi deb qaraladi. Shuning uchun ham bular hozirgi kunda sintaksisning dolzarb muammolari sifatida tadqiq etiladi. Pragmatika tushunchasi ostida lingvistik birliklarning mazmuniy jihatigina tadqiq etish Bilan chegaralanadi deyilgan noto'g'ri xulosaga kelmaslik zarur. Chunki lingvistik pragmatikaning tadqiqot maydoni o'ta kengligi Bilan xarakterlansa-da bu yo'nash ob'ektini tadqiq etish hamda uni chegaralashda tadqiqotchidan o'ta ehtiyotkorlik talab qilinadi. Ch.Morris talqiniga ko'ra, tilga belgi sifatida yondashib, sintaktika, semantika, pragmatika yo'nalishi bo'yicha avval alohida, so'ngra umumlashgan tarzda ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir. Sintaktiga gaplarni o'rganish Bilan shug'ullanadi, semantika nutq sub'ekti tomonidan bayon qilingan propozitsiyalarni o'rganadi, pragmatika esa propozitsiya asosida namoyon bo'luvchi axborot ko'rinishlari Bilan shug'ullanadi. Bu uch sohaning eng muhim tomoni ularning sintaktik birliklarni o'rganish Bilan umumlashishi hamda tadqiqot ob'ektini murakkablashtirishidir. Shuning uchun avvalo tilshunoslikning bu sohalari o'rganadigan sintaktik birliklarga xos semantik strukturalarni aniqlab olish muhimdir. Har qanday ifodaning ikki tomoni mavjud bo'ladi. So'zlovchi bayon qilgan axborotning semantik ko'rinishlaridan biri ifoda diktumidir. Ikkinchisi esa axborot semantik strukturasida diktum tarkibida namoyon bo'luvchi ifoda modulidir.

Propozitsiya tushunchasi jumladagi asosiy axborot bo'lib, so'zlovchi voqelikni bayon qilishda tildan foydalanadi. Tildan ma'lum maqsad yo'lida foydalanish davomida unda ma'lum bir voqealikning aks etishi propozitsiya hisoblanadi. Propozitsiya mavjudlikdagi voqeilikni haqiqiylik sharti apsosida namoyon bo'lgan tildagi mavhumiy mohiyatdir. Demak, nutq perdmoti haqidagi asosiy axborot jumla propozitsiyasini tashkil qiladi. Masalan, Chroyli gullar sotilyapti jumlasidagi oddiy xabar mazmuni propozitsiyadir. Semantika mana shu masalalar bilan shug'ullanadi. G.S. Stolneyker ta'kidlashicha, formal semantika so'zlovchi niyati hisobga olinmagan gapdagi rostlik shartining tasviridir. Bunday tahlilda jumla tarkibida so'zlovchining ichki niyati haqidagi bayon hisobga

olinmaydi, aksincha unda axborotning asosiy ko‘rinishi inobatga olinadi. So‘zlovchi nutqiga xos illokutiv aktlar tahlil ob’ektidan chetga chiqadi. Jumla mazmuni mantiqiy jixatdan to‘g‘ri ekanligi nazarda tutiladi. «Yomg‘ir g‘yapti» jumlasida so‘zlovchi faqat yomg‘ir yog‘ayotganligi haqida axborot berish bilan chegaralanadi. So‘zlovchi nutqiga xos uning sub’ektiv qarashlarining yashirin fiidasi – «biror yoqqa bormaslik», «va’dani bajarish imkoniyatining yo‘qligi» yoki ochiq bayonda mantiqiy ziddlik mazmuni «yomg‘ir yog‘yapti – qor yog‘ishi kerak edi» kabi illokutiv aks semantik tahlilni murakkablashtiradi. Ko‘rinadiki, jumla bilan propozitsiya o‘rtasidagi munosabat nutq sub’ekt bilan bog‘liq tarzda kontekst hamda nutqiy vaziyat yordamida aniqlanadigan bo‘lsa, u holda bu propozitsiya bilan aloqador hodisalar lingvistik pragmatika predmeti mundarijasiga taaluqli bo‘ladi. Semantika jumladagi propozitsiya – mavjudlikdagi voqelik xususida ma’lumot berib, uni nazariy jihatdan tahlil qiladi. «Tilning tabiiy funksiyalaridan biri propozitsiyalarni ifodalanishdir. Jumladan ifodalovchilar bilan propozitsiya o‘rtasidagi munosabatga alokador qoidalarni o‘rganish semantikaning vazifasidir»¹.

Modus tushunchasi bilan bog‘liq mazmuniy tahlil ifodaning shakliy jihatidan qat’i nazar uning ichki semantik tuzilishi - nutq ishtirokchilarining «nima demoqchi ekanliklari» haqidagi ochiq hamda yashirin bayoni bilan xarakterlanadi.

Lingvistik pragmatikaning tadqiqot maydoni keng bo‘lib, bu soha o‘rganadigan muammolarni aniqlash va ularni tadqiq etish shu kunining asosiy vazifasidir. Tildan foydalanuvchi har bir shaxsnin nutqida fonetik sathdan to sintaktik sathga qadar til va nutq birliklarining qo‘llanishida ularning o‘zia xos vazifalari mavjud bo‘ladi. So‘zlovchi nutqiga oid ifodaning qaysidir elementlarida uslubiy belgi va ma’lum vositalar muallifning ichki ruhiy olami yoki sotsial ko‘rinishlari haqida ma’lumot berish uchun xizmat qiladi. Bularning barchasini birlashtiruvchi aspekt lingvistik pragmatika hisoblanadi. «Pragmalingvistika funksional uslubnin maxsus bo‘limi sifatida endigina oyoqqa

¹ Ўша манба, 422 бет.

turayotgan va faqat o'zining kategoriyasi, tadqiqiy usullarini aniqlashga kirishayotgan sohadir».¹ Pragmatika tilshunoslikning yangi sohasi sifatida e'tirof etilgan holda, unga funksional uslubning bir tarmog'i deb qaraladi. Ko'p hollarda esa lingvistik pragmatika semantika muammolari bilan qorishtiriladi.

Ifoda tarkibidagi propozitsiyalar so'zlovchining sub'ektiv munosabati bilan bog'lanmasa, bu propozitsiya semantikaning ob'ekti hisoblanadi. So'zlovchining sub'ektiv munosabatini aks ettiruvchi propozitsiya lingvistik grammatikaning ob'ekti sanaladi. Propozitsiyalar asosan neytral xarakter kasb etadi. So'zlovchi bu propozitsiyalardan biror maqsad yo'lida foydalanadi. Ifodaning ana shunday qyallash jarayonidan boshlab individual uslub tushunchasi namoyon bo'ladi. So'lovchi tinglovchiga ta'sir etish maqsadida mavjud propozitsional uslubiy andozalardan nutq vaziyati uchun xarakterli bo'lgan optimal variantini tanlab oladi.

Xullas, lingvistik pragmatika tilshunoslikning yangi sohasi sifatida nutk sub'ektining ichki maqsadi bilan bog'liq yashirin propozitsiyalarni o'rganadi. U belgining kommunikatsiya jarayonidagi real munosabatiga oid muammolarni o'rganish bilan tilshunoslikning boshqa soxalaridan farq qiladi. Umuman, lingvistik pragmatika muammolarining o'rganilishi kishilar o'rtasidagi ifodalash va anglash jarayonini osonlashtiradi.

Undalmaning shakliy va mazmuniy tomonlari

An'anaviy tilshunoslikda gap bo'laklari yordamida atributiv, ob'ektiv, relyativ va predikativ kabi mazmuniy munosabatlar ifodalanishi ta'kidlanadi. Gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan undalma va kirishlar ham ma'lum munosabatlarni ifodalashi ta'kidlanadi. Lekin ular gap bo'laklari anglatgan munosabatlardan farq qiladi. Atributiv, relyativ, ob'ektiv va predikativ munosabatlar gap orqali ifodalanayotgan sintaktik vaziyatning (propozitsiya, diktum) ikki unsuri o'rtasidagi munosabat bo'lsa, undalma va kirishlar ifodalagan

¹ Ахманова О.С. Магидова И.М. Прагматическая лингвистика прагмалингвистика и лингвистическая парматика // Вопросы языко знания 1978.

munosabat gap orqali ifodalayotgan sintaktik vaziyat yoki uning ma'lum unsuri Bilan so'zlovchi o'rtasidagi munosabatdir. Masalan: Janobi qoravulbegi, bu badkorlar amir odamlari emas. Bu gapda Badkorlar (ega) amir odamlari emas (kesim) predikativ munosabati; bu badkorlar-eganing aniqlovchi, atributiv munosabatni ifodalagan. Lekin Janobi qaravulbegi gap bo'laklari Bilan sintaktik tomondan bog'lanmagan, u faqat gapga mazmunan bog'lanadi. So'zlovchi shaxsning tinglovchi qoravulbegiga murajjatini, tanish shaxsga ma'lum guruh odamlari badkorlarning amir odamlar emasligini tasdiqlaydi. Demak, undalma ifodalayotgan munosabat gap orqali ifodalayotgan sintaktik vaziyat, tanish shaxsga badkorlarning amrga taalluqli emasligi haqida aniq tasavvuf berayotir.

Nazariy grammatikada sintaktik shakllar o'rtasida ifodalayotgan mazmuniy munosabatlarni quyidagi ikki guruhga ajratadi¹.

1) ob'ektiv munosabat

2) sub'ektiv munosabat

Undalmalar esa gapda turli sub'ektiv munosabatlarni ifodalaydi.

Shuningdek, gap ifodalagan sintaktik vaziyat yoki uning unsuri bilan so'zlovchi o'rtasida qanday munosabat mavjudligiga ko'ra, sub'ektiv munosabatlarni yana ikki guruhga ajratadi.

a) undosh munosabati; b) modal munosabati kabi.

So'zlovchi nutq jarayonida ma'lum voqelik haqida axborot berish davomida tinlovchining diqqatini shu axborotga jalb qilgisi yoki bu axborotga qo'shimcha ravishda tinglovchiga o'zining ma'lum sub'ektiv munosabatini ifodalagisi kelib qoladi. Mana shu munosabat undash munosabati sanaladi.

Undash munosabat aks etgan gaplar mazmunan murakkablashadi. Ob'ektiv mazmunga – diktunga sub'ektiv mazmun, so'zlovchining undash munosabati qo'shiladi. Masalan: - Yo'qlagan ekansiz, Olimjon aka! – dedi Qurbon.

- Qulog'im sizda, Olimjon aka (o'sha joyda) kabi.

¹ Маҳмудов Н. нурманов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Т.1995.

Bu erda soʻzlovchining undosh munosabati Olimjon akaga murojaat shaklida namoyon boʻladi.

Undash munosabati bir nechta semalarni oʻz ichiga olgan murakkab butunlik hisoblanadi. Hozirgacha anʼanaviy tilshunoslikda undosh semasi bir butun holda olinib ularning maʼnolari parchalab oʻrganilgan emas. «Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi»da esa undash munosabati quyidagi semalarga ajratib oʻrganish taʼkidlanadi. Haqiqatan ham Sh.Xolmurzayev asarlarini tahlil qilganimizda shunday maʼnolarda qoʻllanganligining guvohi boʻldik.

1. Undash semasi: - Abdullabay, oq yoʻl, uka, - dedi. «Koʻchki» 82 b.

2. Erkalash semasi: - Boʻta-a, men arka boraman, - dedi eshon... «Kil koʻprik» 18 b.

- Pirim, menga shunday inoltir qilasi Kim, men bir umrda bu muruvvatlaringizning mingdan birini ham qaytara olmayman. «Qil koʻprik» 18 b. kabi.

3. Kesatq semasi: Arpangizni xom oʻribmizmi, boy?

4. Doʻq-poʻpisa semasi: Hoy zumrashalar, tuxta!

5. Qargʻish semasi: He horamilar, nima qilib qaydilaring va boshqalar.

Demak, koʻrinadiki undalmalarni faqat bir umumiy sema atrofida undash, yoki murajjaat semasi deb qaramasdan ular maʼnosiga koʻra bir nechta guruhlariga ajratiladi. Shuningdek, bular ichida undash semasi hammasida takrorlanib keladigan birlashtiruvchi semadir. Qolgan semalar farqlanuvchi semalar hisoblanadi.

Soʻzlovchining undash munosabatini ifodalovchi sintaktik shakl va bu undalma sanaladi.

«Oʻzbek tili grammatikasi»da undalmalar semantik va uslubiy xususiyatlariga koʻra uch guruhga boʻlinadi.¹

1. Nutq qaratilgan obʼektni ifodalaydi. Bu obʼekt uch xil boʻladi:

a) shaxs; b) shaxs boʻlmagan jonli predmet; v) jonsiz predmet.

¹ Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. 11т.

Shu nuqtai nazardan qaraganimizda Sh.Xolmirzayev asarlaridagi undalmalar ham xilma-xil ma'no va uslubiy qirralarga ega ekanligining guvohi bo'lamiz.

1. Shaxsni ifodalagan undalmalar kishining nomi, ismi, sharifi, taxallusi, qarindoshligi, yoshi, jinsi, kasbi, unvoni va boshqa xususiyatlarini ko'rsatadi. Masalan: Sh.Xolmirzayev asarlarida quyidagi shaxsga xos xususiyatlar ifodalanadi.

a) shaxsning nomi, ismi, shariafiga murojaat qilinadi; E, Olimjon, bizda Anvarlar yo'q-da! Ana shu karvansoray ham amirniki, birodarlar! «Qilko'prik» 43b. – Xursanmisiz, Karim aka? – dedi Qurbon (66 b) kabi.

b) qarindoshlik, jinsi, yoshi, kasbi va unvoniga qaratiladi. Masalan: zamonning zayli-da, momat – derdi cho'pon. Bu kishi haqiqatan yaqinimiz bo'ladilar, moma, - dedi Oyparcha (255 b).

- Mergan aka, bularni yo'ldan qoldirmaylik. (264b.) – E, tilingizga qand, og'ajon (266 b). Opajon, qizingizning ko'ngliga kelmasin, bundan chiroyli atlamlarni ham to'kimadi. (35 b) Ishonmayapsizmi, o'g'lim? (360 b) kabi.

Lekin badiiy asarlaridan to'plagan misollarimizda qarindoshlik va jinsi bilan bog'liq undalmalar juda ko'p. Ammo kasb va unvoniga qaratilgan undalmalar kam qo'llanilganligining guvohi bo'ldik. Faqat ba'zi asarlarida kasbga murojaat qiladi. Masalan: Mergan, shu erdamisiz? «Qil ko'prik» (370 b). Rais, sen ham qo'shiq to'kimaysanmi bu kishining hamqishloqlariga uxshab? – dedi («Ko'chki» 61 b). Meni maqtab yubordingiz, qyarboshi, - dedi Abdulla «Ko'chki» 95 b kabi.

Demak, yozuvchi o'z asarlarida shaxsga murojaat qilishda personaj nutqinig o'ziga xosligi, tasvirlanayotgan voqea va hodisalardan kelib chiqib zamonaviy va tarixiy undalmalardan keng foydalanadi. Masalan: Komandir bobo, sizni mukofatlashayapti («Essiz Eshniyoz» 188 b). Nor xo'roz bu erda yirtqich hayvonlar ko'p bo'ladi-a? «Qil ko'prik», 134 b va boshqalar.

Shaxsni ifodalovchi undalmalar Sh.Xolmurzayev asarlarida o'ziga xos murajaat shakllariga ega. Asosan, quyidagi so'zlar keng qyallanadi. Masalan, «Qil ko'prik» asarida:

- Taqsir, bu erda siz aytgan kishi yo'q (43 b).
- Pirim, siz shunga nima deysiz? (46 b).
- Esa, amirni qushmay gapiring, begim (152 b).
- Mendan xovatir olmang, azizim (154 b).

- Men eshitganimni aytayotirman, janobu oliylar (158 b). –Tingchlikli, bo'tam (194 b) kabilar. Demak, bundan shu narsa anglashiladiki, yozuvchi o'z asarlarida shaxsga murajjatning xalq og'zaki nutqiga xos shakllaridan juda keng foydalangan. Bu esa asar tilining xalq tiliga yaqinligini, ta'sirgan ekanligini ko'rsatadi. Undalmalar ishtirok etgan sodda gap faqat shakl jihatdan emas balki mazmun ya'ni murajaatning tarixiy shakllari bilan boyib borganligidan dalolat beradi. Bu faqat shaxsga nisbatan qo'llanilgan undalmalar misolidagi holatdir.

Yozuvchi asarlari tilining leksik qatlamlari

Soʻz, umuman, nutqning, shuningdek, badiiy asarning ham asosiy vositasi boʻlib, yozuvchining maqsadi, xatti-harakati, intilishlari, qolaversa, obraz yartishdagi badiiy mahorati ham shu bilan bogʻliq holda yuzaga keladi.

Binobarin, badiiy matnlarda soʻzlar ishlatilishining qay yoʻsinda boʻlishi yozuvchi badiiy barkamolligiga bogʻliq boʻlib, bu holatni har bir tadqiqotchi tekshirish jarayonida anglamogʻi shart. Jumladan, K.Samadov, B.Yoʻldoshevlar xam oʻz tadqiqotlarida yozuvchilarimiz badiiy mahoratlarining qay darajada ekanligi soʻz orqali yuzaga kelganligini toʻla-toʻkis yoritib berganlar. Biz ham ular fikriga qoʻshilgan holda sevimli yozuvchimiz Shukur Xolmirzaev ijodidagi oʻziga xoslikni taʼminlovchi bosh vosita soʻz ekanligiga iqroz boʻldik. Masalan: «Zinadan chiqayotganda, koʻkragi qozondek boʻlib turgan Eshniyozga toʻqnashdi. U kulimsiradi» («Qil koʻprik») yoki «Chiqinglar. Torting, Tongotar-dedi kampir va ayvonga koʻtarildi, daryo tomonga qaradi.

- Nima boʻlyapti u yoqda? He-e, odam qaynab ketdi» («Qil koʻprik»). Ushbu matnlarda ayrim soʻzlar nutqiy aniqlik va taʼsirchanlikni oshirish hamda obrazlilikni uyushtirish uchun ham ishlatilgan. Chunonchi, birinchi matnda koʻkrakka nisbat berish uchun qoʻllanilgan *qozondek* soʻzi badiiy nutqning salmoqdorligini oshirish hamda obrazli tarzda tushunchalarni yuzaga keltirish maksadida ishlatilgan boʻlsa, ikkinchi matndagi *qaynab* soʻzi nutq jarayonida oʻziga xos koʻchma maʼnoda qoʻllanib, mubolagʻa. Boʻrttirish tarzida qoʻllangan. Qolaversa, *qaynab* soʻzidagi maʼno badiiy ifodaviylikni kuchaytirish uchun hamda fikrning taʼsirchan boʻlishi uchun ishlatilgan, yaʼni soʻxdan anglashilgan maʼno qaynash mazmunini ifodalash uchun emas, balki koʻp odam toʻplanganligini boʻrttirish, taʼkidlash va unga munosabatni ifodalash maksadida ishlatilgan. Koʻrinadiki, yozuvi *koʻkragi qozondek* oʻxshatishini oʻziga xos tarzda shakllantirgan. Bunday oʻxshatish shu kunga qadar biror adib ijodida ham,

umuman tilimizda ham uchramagan. Ikkinchi, odam qaynab ketdi qo'llanishi ham o'ziga xos bo'lib, bu birikma «toshib ketdi», «yonib ketdi» ma'nolarida ilgarilari ham nutqimizda ishlatilgan. Ammo uning «odam nihoyatda ko'payib ketdi+yana salbiy munosabat» ma'nolarida ishlatilishi deyarli uchramagan edi yoki kam uchraydigan holatlar («odam to'lib ketdi» keng qo'llanilar edi). Demak, yozuvchining turli tartibsizlikda, yugur-yugur, Chop-chop holatida odamlar aralash-quralash tarzda, qayoqqa borishini, nima qilishini bilmay, o'z yog'lariga o'zlari qovurilib yotganliklarini ham aniq ko'z oldimizda shakllantirish uchun ana shu birikmani tanlaganligi ma'lumdir. Xullas, Shukur Xolmirzayev har bir so'zni qo'llashda unga kata e'tibor bergan, undan to'g'ri va oqilona foydalangan. Bu ijodkorning asarlari tilining rang-baranglikka ega bo'lishiga xizmat qilgan.

Ma'lumki, barcha tillarda bo'lgani kabi o'zbek adabiy tili hamda badiiy prozasi tilining shakllanishida, uning og'zaki va yozma nutqining rivojlanishida lug'aviy birliklarning alohida o'рни bor. Xususan, yozuvchi ijodida sinonim va ko'p ma'noli so'zlar stilistik maqsadda ishlatilganki, bu yuqoridagi fikrimizga asos bo'ladi.

O'zbek tilida sinonim so'zlar va ular bilan bog'liqmavzularda etarli darajada tadqiqot ishlari yoki alohida xarakterdagi risolalar yuzaga kelgan. Xususan, A.Hojiev, A.Doniyorov, R.Qo'ng'urov, E.Qilichev, Yo.Tojiev singari tilshunos olimlarning bu yo'nalishni atroflicha tadqiq etganliklarini alohida qayd etib o'tish lozim¹.

Zero, sinonimlar boshqa so'zlar kabi ma'no fiodalash xususiyati jixatdan umumiy bo'lsa ham, sinonimik qatordagi so'zlarning ma'no fiodalashdagi rang-barangligi nuqtai nazaridan uning alohida yoki yakka tartibdagi jihatidir. Xuddi shu ko'rinish sinonimlarning badiiy adabiyot tilida faol qo'llanilishi uchun zamin yaratadi. Undan har bir san'atkor oqilona foydalanishi lozim. Bu masalada umallif etarli imkoniyatlarga ega bo'lib, sinonim so'zlarni har bir asariga singdirishga harakat qiladi va o'z asar qahramonlarining nutqini boyitadi. Masalan: Mabodo

¹ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изохли луғати. Т.1974.

birining qolib, birining ketishiga to'g'ri kelsa, o'sha tun uylarida uyqu ham kam bo'lar edi. Lekin bu tun eng shirin va lazzeatli tun sifatida yodlarida qolar edi («Og'ir tosh ko'chsa»). Bu o'rinda Shukur Xolmirzayev *shirin* va *lazzatli* so'zlarini qo'llash orqali hayotiy masalalarni ham yorqin timsollar asosida ochib bergan, ya'ni qahramonlarning xarakteridagi o'ziga xos jixatlari, ichki ruhiyati va bir-biriga bo'lgan munosabati ana shut il birliklari orqali kitobxon ko'z o'ngida gavdalanadi. Ayni paytda, shu matnda qo'llanilgan bu so'zlar ma'nodagi nozikliklari bilan ham farqlanadi.

Chunonchi, *lazzatli* so'zida belgi darajasi kuchli bo'lib, ma'lum darajada lazzeat baxsh etish darajasidagi xususiyatni ifodalash uchun ishlatiladi. *Shirin* so'zida esa asosiy e'tibor narsa-perdmetning o'ziga xos mavjud xususiyati o'z ifodasini topgan, ya'ni *shirin* so'zida maza-ta'min ifodalash xususiyati kuchliroq bo'lsa, *lazzatli* so'zida rohatbaxshlikni ifodalash kuchliroqdir. Yozuvchi asarlarida sinonimik qatorlarga kiruvchi bunday so'zlardan foydalanish namunalari anchagina uchraydi. Biroq bu o'rinda yuqoridagi misolni izohlash bilan cheklanamiz.

Shukur Xolmirzayev asarlari tilining go'zal va nafis jihatlarini ochib beruvchi lug'avii birliklardan yana biri ko'p ma'noli so'zlardir.

Bizga ma'lumki, ko'p ma'noli so'zlar nafaqat yozuvchi ijodining, balki, o'zbek badiiy prozasi tilining jozibador, ohangdor, mazmunli boy va serjilo bo'lishida katta ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilshunosligida ham polisemiya va u bilan bog'liq masalalar ancha chuqur o'rganilgan. Xususan, filologiya fanlari nomzodi T.Aliqulov, filologiya fanlari doktori, prof. M.Mirtojievlarining bu borada olib borgan ishlari fikrimizni tasdiqlaydi. Biroq ko'p ma'noli so'zlarning o'zbek badiiy adabiyotidagi o'rni masalasi alohida tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas.

Ko'p ma'nolilik tilining lug'at boyligini shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib, polisemiya bir so'zning ma'no ko'chimidan yangicha ma'nolar yuzaga kelishi natijasida hosil bo'ladi. Ta'kidlash joizki, ana shu Yangi ma'nolar turli xil fikrlarni, tushunchalarni uyushtiradi yoki narsa va predmetlar orasidagi

aloqadorlikni mantiqan asoslashga xizmat qiladi. Ana shu jihati bilan u til boyligiga aylanadi. Demak, ko'p ma'nolilik til boyligida o'z o'rniga ega¹.

Ayniqsa, polisemantik so'zini tushunchalarni milliy ruhda ifodalash xususiyatiga ega bo'lishi ham badiiy til uchun muhimdir, chunki leksik ma'nolarning tilshunoslikda til olinganidek, milliy xarakterga ega bo'lishi polisemantik so'zlarda o'z ifodasini topadi. Shukur Xolmirzayev ijodi tahlil etilar ekan, unda ko'p ma'nolilikning ana shu jihatiga e'tibor berilganligini kuzatamiz. Buni quyidagi misollarda ko'rish mumkin: Sodiq bosh qimirlatdi («So'nggi bekat»). Ha, Eshoni sudur sho'roning bosh g'oyasiga qarshi («Qil ko'prik»). Ha, davomini aytaymi? Keyin «bemehr» o'gil oilaga bosh bo'lib qoldi. Otasining barcha marosimlarini o'sha o'tkazadi. («Og'ir tosh ko'chsa»). Ko'chaning bir boshi markaz tarafga ketar, bir bosh toshloq orqali soyga tushardi («Og'ir tosh ko'chsa»). Avvalo, har bir matn milliy ruh va xarakterdagi fikrlar bilan sug'orilgan. Ana shu milliylik *bosh* so'zi orqali yanada oydinlashadi. Qarang: bosh inson jussasidagi yuqori qism bo'lib, bu birinchi matn orqali to'laroq aks etgan, qolgan matnlarda ham *bosh* so'zi ana shu yuqoridagi ma'noni anglatmoq uchun qo'llangan. Ikkinchi gapdagi *bosh* ham sho'ro hokimiyatining yuqori maqsadi ekanligidan dalolat bersa, uchinchi matnda oilaga boshliq bo'lmoq, to'rtinchi gapda ham ko'chaning yuqori, ya'ni bosh qismi tushuniladi. Ko'rinadiki, milliy xarakter ham polisemiya yuzaga keltirar ekan, bunda leksik ma'noning kengayishini turli xil milliy noziklikka ega bo'lgan ifodalarning yuzaga keltirganligini ko'rish mumkin. Ko'p ma'nolilikning yuzaga kelishi ob'ektiv borliqni anglashda, uni his etishda, shu bilan birga til taraqqiyotining rivoji bilan belgilanadi. Ya'ni polisemiya ma'lum ma'noda sivilizatsiya belgisi hamdir. Qaysi xalqda Fan, texnika, madaniyat, san'at taraqqiy etgan bo'lsa, o'sha xalq ob'ektiv borliqning o'zaro aloqasini shuncha ko'proq ko'radi, ularni bir-biriga ko'proq qiyos etadi va bular tilda ko'proq o'z aksini topadi.

¹ Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. Т.1974.

2.Til tasviriy vositalari va noadabiy leksik birliklarning qo'llanilishi

Darhaqiqat, badiiy adabiyot tilining boyligi uning lug'at tarkibidagi turli xil leksemalarning miqdor jihatdan ko'pligi hamda ma'no doirasining kengligi va torligiga qarab ham o'lchanadi. Demak, badiiy adabiyot tili nafaqat adabiy til doirasidagi so'zlar orqali shakllanar ekan, qolaversa, noadabiy leksik birliklar ta'sirida ham rivojlanib boradi.

Noadabiy qatlamlar haqida gap borar ekan, avvalo har bir ijodkor ko'pgina hollarda adabiy me'yorni chetlab o'tishga e'tiborni qaratadi. SHu sababli, mashhur fransuz tilshunos olimi Sharl Ball iva akademik V.Vinogradovlar badiiy adabiyot tilida adabiy me'yorga xos bo'lmagan umumadabiy til me'yorini chetlab o'tuvchi leksemalar ham mavjudligini ta'kidlaydi.

K.S.Gorbachevichning ta'kidlashicha, yozuvchilar hayotni aniq tasvirlash maqsadida turli adabiy bo'lmagan so'z va so'z shakllari va matn talab qilgan ifodalardan foydalanish maqsadida adabiy me'yorni chetlab o'tadi. Demak, yozuvchilar hayotiy voqelarni to'g'ri talqin etish uchun nafaqat adabiy me'yorga xos leksemalardan, balki noadabiy til unsurlaridan ham foydalanishga e'tiborni qaratadi. Shukur Xolmirzayev ham ko'pgina o'rinlarda adabiy tilni chetlab o'tishga majbur bo'lgan. Yozuvchi ijodida ana shunday noadabiy til vositalaridan biri dialektizmlardir.

Binobarin, dialektizmlar – umumxalq tilining ajralmas bir kismi bo'lib, asosan jonli so'zlashuv nutqiga xos leksemalar hisoblansa-da, ulardan badiiy adabiyot tilida foydalanishga ham e'tibor qaratiladi.

Ko'pgina tilshunoslikka oid tadqiqotlarda dialektizmlar umumxalq doirasidagi nutq turi sifatida qaralib kelingan va adabiy til me'yoriga mos kelmasligi tufayli adabiy nutqda chegaralangan holatlarda qo'llanilishi haqida fikrlar yuritilgan.

Dialektizmlardan badiiy asarda turli xil maqsadlarda foydalaniladi. Ayniqsa, ularning uslubiy vazifani bajarib kelishi badiiy asar tilining boy va

jozibador bo'lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan, ular adabiy tilning funksional nutq doirasiga o'tadi, o'sha uslubga mos va emotsional bo'yoq oladi, masalan, «oddiy so'zlashuv stiliga xos bo'yoq oladi»- degan fikr muayyan ma'noni kasb etib kelmoqda. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlar bilan birga uslubiy vazifani bajarish haqida alohida muloxazalar aytib o'tilganligini kuzatamiz. Demak, dialektal qatlam ham, stilistik vazifani bajaruvchi leksemalar hisoblanib, bu holatning yozuvchi ijodida qay yo'sinda qo'llanilishini ko'rib o'tish maqsadga molikdir. Masalan: Unga tuulm ilig'lik. Tulumning qappaygan qorniga yog' sirqib chiqqan, ustiga chang-chung ko'ngan. -Ana, piyoladagi moyini hurtlab yuboring,- dedi. Sug'urning moyi. Keltirilgan misollarda tulum (ko'yning qornidan tikilgan xalta), *qappaygan* (shishib chiqqan), *sirqib* (oqib), *xurtlab* (xo'plab) kabi dialektizmlar badiiy tasvirda ta'sirchanlikni oshirish uchun xizmat qiladi. Odatda bu dialektizmlar, Surxondaryo xududida yashovchi sheva vakillari nutqiga xos bo'lib, asarda tasvir etilayotgan manzaraning shu joyda yuz berganligini ham ishonarli holda bayon etilganligidan dalolat beradi.

Badiiy adabiyot tilini boyituvchi vositalar talaygina. Xususan, abdiy tilning boyib borishi va uning taraqqiy etib turishida og'zaki nutqqa xos leksemalarning ahamiyati katta. Odatda og'zaki nutq leksikasi badiiy asar tilining shunday bir ko'rinishiki, u har qanday asarning badiiy-estetik ta'sirchanligini uyushtiradi. Ayni chog'da, og'zaki nutqqa xos lug'aviy vositalar badiiy tilining ta'sirchan, jozibador bo'lishini ham ta'minlaydi. Bu bevosita, yozuvchi Shukur Xolmirzayevning ham ijod xarakteriga xos holatdir. Bunday holatlarning ayrimlari xususida o'z fikrimizni bildirmoqchimiz hamda quyidagi matnlarga e'tiborni qaratamiz. Masalan: «Ona endi obrazini tushunayotgani uchunmi yo o'g'li esiga tushib ketdimi, ko'zlarini artib piqillamoqda edi» («Og'ir tosh ko'chsa»). «So'ngra u boshqalardek ortiqcha to'ng'illamaydi, berganini olib, haqiga mo'l-ko'l duo qiladi». -«Turinglar, supuraman!-dedi. Turing. Barot bobo! He. - u to'ng'illab nari-beriga supurgi tegizdi» («So'nggi bekat»). Keltirilgan misollarjda *piqilamoqda*, *to'ng'illab* kabi leksemalar qo'llanilgan bo'lib, ular xalqnitng

ogʻzaki nutqiga xos leksik vositalardir. Ayni paytda bu soʻzlar estetik taʼsirchanligi bilan ham badiiy nutq uchun xosdir, chunki shu matnlarda har bir qahramon va personajning xarakterli xususiyatlari shu soʻzlar orqali ochib berilgan.

Yozuvchi ijodida qoʻllanilgan ogʻzaki nutqqa xos leksik-grammatik vositalarni diqqat bilan tekshirar ekanmiz, har bir ogʻzaki nutqqa xoslangan soʻzning his-xayajon qoʻzgʻatishi, boʻyoqdorligini koʻramiz. Masalan: - Chiqmaysanmi, ey xalq, - deb baqirdi. -He, kulala tushib yotmay ket! – U oʻziga oʻqrayib turgan Eshniyozning oldidan magʻrur oʻtib, er baravari tomga chiqa solib, uch-toʻrt depsindi, tepindi. Soʻng boʻgʻotga yaqin borib, xassasi bilan toʻsinip urdi. -Chiq-e, laʼnatlar! Qoʻrqoqlar!...Uyat! He, usta Gʻiyos! Nosingni tupur-e bachchagar! –U nari ketdi. –Hoʻ-oʻ, Sotiboldi! He sotilib ket iloyim? Ishshaygan!... Otingni oldirib muzdek boʻlib oʻtiribsan? Battar boʻl! He, Qirgʻiz chobagʻon! Bormisan, qadrdon? Chiq deyapman...Mana, aygʻiringni topib beradiganlar kelishdi!...Ushbu parchada ogʻzaki nutqqa xo sbir qancha lugʻaviy vositalar qoʻllanilgan. Xususan, *ey, he, kulala, laʼnatilar, bachchagar, tupur-e, iloyim, chopagon, ishshaygan, battar boʻl* kabi soʻzlar soʻzlashuv nutqining elementlaridir. Ayniqsa, *kulala, iloyim, ishshaygan* soʻzlarida turli modad maʼnolarni ifoda etish xuussiyatlari mavjud. Chunonchi, *kulala* soʻzida «bir oʻram holatida kotib qolmoq» yoki «yashirinib olmoqlik» maʼnosi aks etgan boʻlib, bu soʻz orqali xalqqa ishora qilingan. *Iloyim, ishshaygan* soʻzlari orqali soʻzlovchining tinglovchiga boʻlgan munosabatida nafrat maʼnosi oʻz ifodasini topgan. Bu matnda emotsiyani qoʻzgʻatuvchi vositalar keyingi oʻrinlarda qoʻllanilgan *laʼnatilar, bachchagar* kabi vulgar soʻzlarning ishlatilishi bilan yanada kuchaygan. Nutqning salbiy-emotsional boʻyoqdorligi kuchayishi nuqtai nazaridan ham bu soʻzlarning qoʻllanishi xarakterlidir. Shuningdek, *ey, he, hoʻ-oʻ* kabi undovlar ham soʻzlovchining tinglovchiga boʻlgan munosabatida undashni kuchli his-xayajon bilan ifodalashga xizmat qilgan. Koʻrinadiki, keltirilgan soʻzlarning hammasi esotsional boʻyoq kasb etuvchi lugʻaviy vositalardir.

Ta'kidlash joizki, so'zlovchi o'z fikriga yakun yasab, tinglovchini ishontiruvchi *man*na, *ayg'iringni topib beradiganlar kelishdi!*... iborasini qo'llaganki, buf ikr orqali fikriy aniklik ta'minlangan. Demak, ushbu parchada berilgan ko'pgina og'zaki nutqqa xos so'zlar emotsional-ekspressivlikni uyushtirib kelgan, shu bilan birga, badiiy nutqning ham ta'sirchan va jozibador bo'lishini ta'minlagan. Yana shuni aytish kerakki, xuddi mana shu parchada Shukur Xolmirzayevning o'ziga xos nutq tuzish mahorati, uslubi ko'zga yaqqol tashlanadi. Parchadagi gaplarning aksariyati bir bosh bo'lakli, sodda, bir so'zli (so'z-gap) gaplardan iborat. Undov gaplarni ketma-ket qo'llagan. Natijada ma'lum vaziyat haqida aniq tasavvur hosil qiladi. So'zlovchining kuyib-pishayotganligini, jahli chiqqanligini, shu bilan birga ularga mehri-muhabbati, ishonchi bor ekanligini ham jonli ifodalab bergan.

O'zbek tilshunosligida okkazional so'zlar va matnda okkazional ma'noni to'laqonli ochib beruvchi alohida tavsifdagi tadqiqot mavjud. Bundan tashqari, ko'pgina tadqiqotlarda okkazional so'zlarning qo'llanishiga doir anchagina mulohazalar bor.

Ta'kidlash joizki, okkazional ma'noni yuzaga keltirishda har bir san'atkor affiks va prefikslardan hamda turli xil so'z yasash shakllaridan unumli foydalanmog'i lozim. Xuddi shu masalada B.Yoriev Maqsud Shayxzoda asarlari tiliga xos okkazional tahlil etar ekan, Maqsud Shayxzoda etuk san'atkor sifatida okkazional ma'no anglatish maqsadida bir qancha affiks, prefik va boshqa so'z shakllaridan unumli foydalanib, yangi variantlarni yaratganligini ta'kidlaydi. Bu esa shoirning yangi so'zlar yasashdagi dadilligi, novatorligidan dalolat beradi, - deydi. Ana shunday fikrlar Sh.Xolmirzayev ijodiga ham talluqli bo'lib, yozuvchining individual nutq kasb etuvchi xususiyatlari –obod, -talab, -xona, -xo'r kabi affiks va prefikslari orqali hosil bo'lgan va okkazional ma'no ifoda etuvchi bir qator so'zlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, -obod affiksoidi qo'shilib o'rin-joy nomini hosil qiluvchi yangi otlar yasaladi. Bunday otlar o'zakdagi ma'no Bilan bog'liq ifodani konkret real, ishonarli tarzda belgilab beradi: «Qizillar» ham o'zimiznikilar ekan. Musulmonobodlik bo'lid... Omonlik-omonlik («Og'ir tosh

ko'chsa»). Keltirilgan misolda *musulmonobodlik* okkazional so'zida garchand, bu so'z semantikasida musulmonchilikning gullab-yashnayotganligi ma'nosiga ishora bo'lsa-da, aslida u tinchlik, osoyishtalik ma'nolarini ifoda etish maqsadida qo'llanilgan.

Okkazional so'zlarni yangi paydo bo'lgan so'zlar sifatida kabul qilish mumkin. Shuning uchun ham, o'zbek tilshunosligida badiiy ijod bilan bog'liq bo'lgan neologizmlarni okkazionalizmlar, individual va stilistik neologizmlar – deb atashlar, shuningdek, okkazional so'zlarni individual-stilistik neologizmlar sifatida qabul qilishlar ham o'z ifodasiga ega. Okkazional so'zlarning tilda yangidan paydo bo'lishi uning individual xususiyati bilan bog'liq desak, xato bo'lmaydi. Shu boisdan ham, okkazional ma'nolar individual holatda, ma'lum kontekstda hosil bo'lganligi uchun ham ba'zan individual okkazionalizmlar shaklida atalishiga qyashilsa bo'ladi. Quyidagi misolni keltirib o'tamiz: -Ha, semirib, Osh-non eb yuribsanmi? – dedi. –Obbo, meni siz ham xo'ra deb ataysiz. Aslida o'lgudek chimxo'rman! – dedi. Keltirilgan matnda *xo'ra*, *chimxo'rman* okkazional so'zlari ma'nodagi holatni yakka shaxs nutqiga xos tarzda reallashtirish uchun xam ishlatilgan, ya'ni semiz, oriq kishi jussasini ifoda etish uchun qo'llanilgan. Ushbu so'zlarda yakka shaxsning xarakterli xususiyati ochib berilgan. Okkazional ma'noning umumtarzda ifodalanishi yozuvchi asarlari tilining muhim qirralarini ochib beradi. Masalan: -Xulosa shuki, - dedi Eshoni Sudur, - sho'rolaru ularning farmonbardorlari...amirlik davrida yo'l qo'yilgan nuksonlarni yaxshi bilib olib, anna o'sha nuqsonlarni bartaraf etadigan qilib ko'rsatishyappti o'zlarini!... Buni bilib olingiz! Ushbu matndagi *farmonbardorlari* okkazional yasalmasi shaxslarga nisbatan salbiy munosabatni ifodalashga xizmat qilgan. SHuningdek, *oziqachi*, *pashshalashma*, *qizilkaltakchi*, *to'yxo'r*, *esxona*, *shaxmatiusxa*, *bandixona*, *qulochkashlab* va hokazo okkazional so'zlar ham badiiy tasvirlash vositasi sifatida yozuvchi asarlari tilini boyitgan. Quyidagi misollarga e'tiborni qarataylik: «To'g'ri, bir-ikki marta borgisi ham keldi. Biroq yo'li tegmadi. Goh oziqachilar bilan qishloqlarga chiqadi. Em-xashak, don-dun xarid

qilib kelishi kerak»... «Xoy, izzatingni bil, u odamga buncha pashshalashma degan edi. Men quloq solmabman». Keltirilgan matnlarda *oziqachi*. *Pashshalashma* okkazional soʻzlari adabiy asarning yuqori badiiyligini taʼminlovchi vositalardir. Aslida bu okkazional soʻzlar maʼnoda turli xil nozikliklarni ham yuzaga keltirgan. Chunonchi, *oziqachi* okkazional soʻzi oʻziga xos tarzda yasalgan boʻlib, em-xashaq, donni tarqatib yuruvchi kishilarga nisbatan qyallanilgan. *Pashshalashma* okkazional soʻzi tanbeh maʼnosini ifodalash uchun ishlatilgan boʻlib, bu soʻzning semantik maʼnosidagi ifoda yaqin borma yoki xalq nutqiga xos boʻlib qolgan «xira pashshaga oʻxshab bunchalik yopishmasang», «jigʻimga tegma», «xazillashma» kabi maʼnolarni uyushtirgan. Shuningdek, *pashshalashma* soʻzida undash maʼnosi ham oʻta darajada kuchlidir.

UMUMIY XULOSALAR

Badiiy adabiyotda nutqni shakllantirish juda murakkab jarayon bo'lib, uni o'rganish va tadqiq etish ham har bir tadqiqotchidan katta ma'suliyatni talab etadi. Shuning uchun ham, badiiy adabiyot tili muammolari bilan qiziqish keyingi davr o'zbek tilshunosligining muhim nazariy hamda amaliy aspektlariga aylandi.

Sh.Xolmirzayev asarlari o'ziga xos badiiyat uslubida yozilgan. Shunga ko'ra, uning asarlari tili badiiy jihatdan o'rganilishga loyiq, ular jiddiy tadqiqotlarga to'la material bo'la oladi va ana shu jihati bilan dolzarb u muhimdir.

O'zbek tilshunosligida keyingi paytlarda badiiy matnning lisoniy tadqiq bo'yicha sezilarli darajada ishlar qilindi. Biroq bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Sh.Xolmirzayev asarlari tilini o'rganish ham shular jumlasidandir.

Shukur Xolmirzayev nasriy asarlarining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etish asosida quyidagi umumlashmalarga kelindi:

- Adib o'zbek tilining barcha boyliklaridan, tasviriy vositalaridan xabardor va u o'z asarlarida ulardan unumli va mahorat bilan foydalangan. Shu bilan birga u o'zbek poetik adabiy tili lug'at fondi so'zlarini ham, mumtoz adabiyot leksikasini ham yaxshi biladi.

- Shukur Xolmirzayev asarlarida o'zbek tilining umumiste'moldagi so'zlariga, ayniksa, keng o'rin berilib, asar xalqchilligini ta'minlashga xizmat qildirilgan.

- Adib o'z asarlarida tilning tasviriy vositalariga (perifraza, o'xshatish, metafora, sarkazm, epitet, takror) alohida e'tibor bergan. Ular orqali fikrlarni aniq, lo'nda, tushunarli va ta'sirchan ifodalashga erishgan.

- Yozuvchi nasri matni tekshirilishi jarayonida shu narsa ma'lum bo'ladiki, u jonli so'zlashuv uslubiga xos so'zlardan nihoyatda unumli foydalangan. Bu esa Shukur Xolmirzayev asarlarining xalqchilligini ta'minlagan.

- Yozuvchi o'z asarlarida dilaektizmlardan keng foydalangan. Asarlari tilida uchragan dialektizmlar turli maqsadlarda ishlatilganligi bilan ham ajralib turadi:

a) makonga munosabat; b) xalq tiliga munosabat; v) ta'sirchanlikni, xalqchilikni ifodalash kabilar.

- Shukur Xolmirzayev o'ziga xos tarzda matn tuzish (gap tuzish) malakasiga ega. Uning asarlarida bir bosh bo'lakli, qisqa, so'z-gap shaklidagi jumlar nihoyatda ko'p uchraydi. Boshqacha aytganda, sintaksisning (gap qurilishining) jonli so'zlashuvga xos turli namunalarini mahorat bilan qo'llaydi.

Umumtilshunoslikda parsellyativ qurilmalar o'tgan asrning 20-30 yillari o'rganilgan bo'lsa, rus tilshunosligida bu masala 50-60 yillarda tahlil qilina boshlagan. Ilgari parsellyativ qurilmalar ilovali konstruksiyalar tarkibida o'rganilib kelingan edi. Keyinchalik bu ikki sintaktik birlik alohida alohida sintaktik butunlik ekanligi farqlandi.

O'zbek tilshunosligida esa parsellyativ qurilmalar mustaqillikdan keyingi davrda yaratilgan ilmiy tadqiqotlarda keng yoritila boshlagan. Ayniqsa, parsellyativ qurilmalar badiiy asarlarning uslubiy tomonlarini ochib berishda alohida sintaktik birlik ekanligi ko'zga tashlanadi. Hozirgacha o'zbek tilshunosligida badiiy asarlarning badiyatini ta'minlovchi leksik-grammatik vositalar sifatida so'z ma'nolarining ko'chish usullari o'rganilib kelingan edi. Hozir badiiy asar uslubiyati bilan bog'liq sitaktik hodisa hisoblangan parsellyativ qurilmalar chuqur o'rganila boshladi. Bunday qurilmalar barcha yozuvchilar asarlarida bir xil emas. Ayrimlarida ko'p uchrasa, ayrimlarida mutlaqo qo'llanilmaydi. Lekin Sh.Xolmirzayevning asarlari parsellyativ qurilmalarga juda boy ekanligi bilan ajralib turadi. Hatto, uning asarlarida barcha gap bo'laklari parsellyativ holatda qo'llanganligini ko'ramiz. Ularning har biri o'ziga xos uslubiy jihatlarni keltirib chiqaradi. Masalan ega vazifasidagi parsellyatlardi xilma-xil semantik grammatik holatlar kuzatiladi. Gapning zaruriy konstruktiv bo'lagi hisoblangan to'diruvchilarning grammatik va semantik jihatdan behat ko'p qo'llanilishi va hol parsellyatlarning gap kengaytuvchisi sifatida ishlatilishi adib asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ekspressiv sintaktik usul bo'lgan parsellyasiya natijasida bir tomondan, hajman katta sintaktik struktura ixchamlashadi, ikkinchi

tomondan tegishli qismlarning mantiqiy poetik ta'kid darajasi ortib, nutqning sintaktik-estetik, lingvopoetik bo'yoqdorligi kuchayadi. Parsellyasiya matn badiyatini ta'minlashda o'ziga xos sintaktik zahira vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. O‘zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T. “O‘zbekiston” 1995
2. Abdurahmanov G‘. Yozma nutq uslubini yaratuvchi vositalar. O‘TA. 3-son. 1994.
3. Abdullaeva A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. T. O‘TA “Fan”., 1983
4. Abdullaev A. Ilova ko‘chirma gapli qurilmalar. – T ., O‘TA. 1982. 2-son
5. Vinogradov V. V. Проблемы русской стилистики. М. 1971.
6. Gaipov S. Metafora emotsional – ekspressiv munosabat ifodalash vositasi sifatida. 4- son, O‘TA., T. 1974
7. Aliksenko I. V. Парцелляция как грамматические структуры речи. АКД. М.. 2006.
8. Doniyorov X. Yo‘ldashev B. Adabiy til va badiiy stil – T., 1988
9. Maskapov B. Присоединительные конструкции в узбекском языке. АКД. – T., 1985.
10. Maxmudov N. O‘zbek tili stilistikasining dolzarb masalalari. O‘TA, 5- son T. 1990.
11. Mukarramov M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili ilmiy uslub va semantik – funksional uslubda. ADD. – T., 2008
12. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil - T., 1995.
13. Karimov S. O‘zbek tilining badiiy uslubi. Samarqand.1992.
14. Samadov Q. Oybek asarlari tilining ba’zi masalalari. NDA. T., 1967.
15. Toshaliyev I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili . Sintaksis. T., 2004.
16. To‘rabekova S. Til va uslub. - T., 1963

17. Ishoqov F. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ilovali qurilmalar. O'TAM. 2 – kitob T. O'zFA. 1961.
18. Stupkina M.O. Parsellyasiya v sovremennom bolgarskom yazыke. AKD. Sann-petrburg.
19. G'affarov A.A. Hozirgi o'zbek adabiy tilida parsellyattiv va ilovali qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi. NDA. – Samarqand. 1997.
20. Mirtajiev M. O'zbek tili polisemiya – T. 1974.
21. Maxmudov N. Nurmanov A. O'zbek tili nazariy grammatikasi. – T. 1995.
22. Normuradov R. Sh. Xolmirzayev asarlarining til xususiyati. NDA. – T., 2000
23. Rafiev A. Iboralar nutqimiz ko'rki - T., 1985.
24. Turniezov N. Sintaktik derivatsiya nazariyasi va parsellyatsiya qurilmalar. Samarqand. 2007.
25. O'zbek tili grammatikasi 2 t . - T., 1975. Sayfullaeva R. Mengliev B. Va boshqalar .Hozirgi o'zbek adabiy tili
26. Usmanov Metafora. O'TA. 1964 4 –son. Haydarov Sh. Xolmirzayev asarlarida parsillyatli tuzilmalarning qo'llanilishi. 11-son TAT. – 2009
27. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so'z. T. 1993.
28. Yuldashev B. O'zbek badiiy prozasining uslubiy tahlili. – T. 1989.
29. Yuldashev B. S. Ahmad asarlari tili va uslubi NDA. – T., 1979.
30. Yuldashyev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. – T., 2009.
31. Haydarov. Sh. M. Badiiy matnda parsillyativ qurilmalarning qo'llanishi.
32. Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar. 3 jildlik 3 – jild. – T “Sharq”., 2003
33. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T., “O'qituvchi” 1985.
34. Hojiev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati – T., 1974.

Mundarija

Kirish:

- 1. Mavzuning o'rganilishi, dolzarbligi, maqsadi va vazifalari.....**

II. Birinchi bob

- 1. Yozuvchining til tasviriy vositalardan foydalanish mahorati.....**
- 2. Yozuvchi asarlarida parsillyatsiya va ilova qurilmalarining ishlatilishi...**

III. Ikkinchi bob

- 1. Yozuvchi asarlari tilining leksik qatlamlari va uslubi.....**
- 2. Til tasviriy vositalari va noadabiy leksik birliklarning qo'llanilishi.....**

IV. Umumiy xulosalar....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

Berdaq nomidagi QDU filologiya fakulteti IV o'zbek filologiyasi bo'limi talabasi Rahimbayeva Yulduzning "Sh. Xolmirzayev asarlari badiyatini ta'minlovchi leksik – stilistik vositalar" nomli bitiruv malakaviy ishi bo'yicha ilmiy rahbar

XULOSASI

Badiiy asarlar tilini o'rganish bo'yicha turkiy tillarda va o'zbek tilshunosligida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, Sh. Xolmirzayev asarlarining badiyatini ta'minlovchi leksik – stilistik vositalar hali ham o'z echimini topgan emas. Chunki adib asarlarida qo'llanilgan tasviriy vositalar xilma – xil bo'lib uni o'rganish hali ham davom etadi. Mana shu nuqtai nazardan qaraganimizda ushbu bitiruv malakaviy ishda ham eng dolzarb masalalardan biri haqida so'z boradi.

Ishning kirish qismida mavzuning o'rganilishi, dolzarbligi , maqsadi va vazifalari to'la ochib berilgan.

Malakaviy ishning birinchi bobida yozuvchining ta'sviriy vositalardan foydalanish mahorati, adib asarlarida ko'p uchraydigan parsellyativ qurilmalar haqida fikr yuritilgan. Unda yozuvchi Sh. Xolmirzayev qalamiga mansub bo'lgan perifrazalar, metafra, metonimiya, epitet, parsellyativ qurilmalar haqida keng to'xtagan. Adib asarlarida to'plangan xarakterli misollar yordamida har bir tasviriy vositalarning uslubiy xususiyatlari atroflicha yoritilgan. Ayniqsa yozuvchi asarlarida parsillyativ qurilmalarning keng qo'llanilishi va ularning gap bo'laklari tarkibidagi o'rni va ahamiyati to'la ochib berilgan

Ishning ikkinchi bobida ham adib asarlari tilining uslubiy o'ziga xosligini, xalqchilligini ko'rsatadigan undalmalar pressuppozitsiyasi, ularning shakliy va mazmuniy o'ziga xosligi kabi tomonlari o'rganiladi. Shuningdek, yozuvchi asarlari tilining leksik qatlamlari, polisemantik xususiyatlariga ham alohida to'xtalgan. Ayniqsa, dialektal so'zlardan va okkazional ma'noni yuzaga keltirishda har xil prefiks va affikslardan o'rinli foydalanganligi alohida ta'kidlanadi. Adib asarlari tili xalqchil va turli tasviriy vositalarga boy.

Xullas, Yu. Rahimbayevaning "Sh. Xolmirzayev asarlari badiyatini ta'minlovchi leksik – stilistik vositalar" nomli bitiruv malakaviy ishida mavzu keng qamrovga olingan bo'lib, uni DAK himoyasi uchun bimalol tavsiya etish mumkin.

Ilmiy rahbari:

dots. A. Madaminov

**Berdaq nomidagi QDU filologiya fakulteti IV o'zbek filologiyasi bo'limi
talabasi Rahimbayeva Yulduzning “ Sh Xolmirzayev asarlari badiyatini
taminlovchi leksik – stilistik vositalar” nomli bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

Har qanday yozuvchining dunyoqarashi, o'y fikri, uning olamni tushunish darajasi, yangilik va ixtirolari o'z asarlarida aks etgan bo'ladi. Shu nuqtai nazardan Sh. Xolmirzayev asarlari badiyatini ta'minlovchi leksik – stilistik vositalarni o'rganish tilshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi. Chunki u o'ziga xos individual nutq tuzish yoli va uslubiga ega adiblardan biri bo'lib, uning asarlari tilini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Ishning kirish qismida hozirgacha badiiy asar tili va uslubini o'rgangan adiblarning ishlariga va ishdan ko'zlangan maqsad, vazifalarga qisqacha to'xtaydi.

Malakaviy ishning birinchi bobida adib asarlarida qo'llanilgan tasviriy vositalardan prefrazaga alohida to'xtaladi. Masalan: “Fikri ochiq ziyolilar”, amir o'rnida “ janob oliylari” kabi. Shuningdek, yozuvchi metaforalardan vulqon, qora bulut, quyosh kabi metofoirik so'z va birikmalardan o'rinli foydalanganligi alohida ta'kidlanadi. Ayniqsa, yozuvchiga xos xarakterli epitetlar, sarkizmlar, takrorlar, metafora va metonimiyalardan keng foydalanganligi to'la ochib berilgan. Adib asarlari tilining xalqchilligi va badiyatini ta'minlovchi bunday tasviriy vositalar uslubiy jihatdan boshqa adiblardan ajralib turishi ko'rsatiladi.

Yozuvchi asarlari tiliga xos yana bir vosita parsillyasiya qurilmasi bo'lib, ular ham asar tilining emosional – ekspresivligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqotda, parsillyativ bo'lakning ega , kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol shakllarida kelishlariga xarakterli misollar beriladi. Chunki yovuvchi asarlari xalqchil bolib, parsilliyativ birikmalar ularning og'zaki nutqqa yaqinligini ta'minlaydi.

Malakaviy ishning ikkinchi bobida yozuvchi asarlarida qollanilgan undalmalar va pressupozisiya (tagbilim) bilan bog'liq uslubiy tomonlar ham alohida yoritiladi.

Bundan tashqari yozuvchi asarlari tiliga xos leksik qatlamlar haqida ham fikr yuritilib, asar tiliga xos sinonim va ko'p ma'noli so'zlarning yangi semalarini ochib berishga harakat qiladi. Shuningdek, noadabiy qatlamga oid diallektizmlar, okkozional so'zlardan ham o'rinli foydalanganligi ta'kidlanadi.

Umuman ishda berilgan mavzu atroflicha chuqur o'rganilgan bo'lib, ayrim takrorlar va uslubiy g'alizliklardan ham holi emas. Lekin shu juz'iy kamchiliklar ishning umumiy saviyasini tushura olmaydi. Shuning uchun ham ishni o'z nihoyasiga etgan, yaxshi yozilgan malakaviy ishlar qatorida baholayman.

Berdaq nomidagi QDU

Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrası:

prof. M. Xudaybergenov